

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**  
**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

«Himoyaga ruxsat etildi»  
Pedagogika fakulteti dekani,  
dotsent \_\_\_\_\_ K.Boymirzayev  
«\_\_» \_\_\_\_\_ 2018 y.

**5110800-Tasviriy san`at va muxandislik grafikasi**  
**yo`nalishi bitiruvchisi**  
**Toshpo`latova Zahro Mahmud qizining**

**“RANGTASVIRDA MANZARA ISHLASHNING O‘ZIGA HOS**  
**XUSUSIYATLARI”**  
mavzuidagi

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

«Himoyaga tavsiya etildi»  
Tasviriy san`at va muxandislik  
grafikasi kafedrasi mudiri  
\_\_\_\_\_ dots. O'.Abdullayev  
«\_\_» \_\_\_\_\_ 2018 y.

BMI rahbari: dotsent  
\_\_\_\_\_ A.A.Amanullayev

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
<b>1-bob. Rangtasvirda ijod qilgan buyuk rassomlar asarlari tahlili</b> .....	9
1.1. O'zbek, rus yevropa rassomlarining manzara janridagi asarlarini o'ziga xos xususiyatlari.....	9
1.2. Mustaqillikka erishgandan so'ngi yillarda manzara janirida yosh rassomlar ijodlarini o'ziga xos tomonlari.....	17
1.3. Manzara ishlashda buyuk rassomlarning asarlarida kompozitsiya tuzilmalar tuzilishini ilmiy tahlili.....	27
<b>2-bob. Rangtasvirda manzara ishlashda kompozitsiyaning o'ziga xosligi</b> .....	43
2.1. Manzara ishlashda ranglar ustida ishlash usullari.....	43
2.2. Manzara ishlashda matoni moybo'yoqda ishlash uchun uni tayyorlash texnologiyasi.....	46
2.3. Rangtasvirda manzara ishlash uchun yangi mavzu asosida turli xilma-xil loyihalar ustida.....	50
<b>Xorijiy manbalar</b> .....	55
<b>Xulosa</b> .....	60
<b>Adabiyotlarro'yxati</b> .....	62
<b>Ilovalar</b> .....	64

## KIRISH

O`zbekiston Respublikasining istiqbolga erishishi xalqimizning tarixiy qadriyatlari, ma'naviy merosi xalq pedagogikasi an'alarini qayta tiklashga va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirishga katta yo`l ochib berdi. Xurmatli prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Buyuk kelajagimizning mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz saylov oldi dasturlarida ta`lim tizimini yanada takomillashtirish bo`yicha 2017 – 2021 yillarga mujallangan daturida ushbu ta`lim tizimini moddiy–texnik bazasini mustaxkamlash, ularning tarmog`ini kengaytirish, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta`lim – tarbiya jarayonlari zamonaviy usul va dasturlarini joriy etish bo`yicha amaliy chora tadbirlar ko`zda tutilgan aytib o`tgan. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy yo`nalishlarida biri-ishchi-xizmatchilarning, ayollar va balog`at yoshiga yetmagan yoshlarning mehnat sharoitlarini yaxshilashdan iboratdir.

O`zbekistonda yangi ma`naviy –g`oyaviy yo`nalishlarning shakllanishi o`z navbatida zamonaviy san`atning barcha turlariga samarali ta`sir etmoqda, ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini yanada jadallashtirmoqda. Barcha san`at turlari kabi tasviriy san`at, xususan uni rangtasvir turida yaratilgan asarlarda yangi g`oyaviy – mafkuraviy muhit ta`siri, milliy hamda tarixiy mavzular ustuvorligi o`z aksini topmoqda va zamon talabiga javob bera oladigan asarlar yaratilmoqda. Bularni barchasi yurtimiz kelajagi bo`lgan yoshlarning ma`naviy shakllanishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Men buni zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan, hayotimizda tobora hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan sog`lom va barkamol avlod timsolida ko`raman”<sup>1</sup> deganlarida birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov haq so`zni aytgan edilar. Darhaqiqat, bugun Respublikamizda” ham jismoniy, ham ma`naviy jihatdan yetuk, mustaqil fikriga ega, oqni qoradan ajratishga, taraqqiy topgan davlatlardagi tengdoshlari bilan bellashishga qodir

---

<sup>1</sup> I.Karimov. “O`zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 20 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so`zi...” Xalq so`zi gazetasi 2012-yil 1-sentyabr N; 171 son

bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashga"<sup>2</sup> alohida e'tibor qaratilayotir. Shuni alohida qayd etish lozimki, Prezidentimiz rahnomoligi ostida O'zbekistonda ta'lum tizimiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaymoqda. Buning isboti sifatida maktab, litsey, kasb-hunar kolejlari, oliy -o'quv yurtlarini zamonaviy talab darajasida ta'mirlanish, yoshlarning bilim olishlari uchun qulay, keng sharoitlar yaratilib berishida, xalqaro miqyosda ta'lim sohasida konferensiyalarning o'tkazilishi va boshqalarda ko'rishimiz mumkin.

Prezidentimiz "Harakatlar strategiyasini e'lon qilar ekan, bu muhim hujjatda "jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash"<sup>3</sup> ularning baxtli, saodatli, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash maqsadini kozlaganlar. Darhaqiqat, birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Biz farzadlarimizning na faqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan inson bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob bera oladigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha sharoyit va imkoniyatlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz"

Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki boyliklarni, bilimlarni o'rganish, o'zlashtirish va rivojlantirish vazifasi turadi. Hayot taraqqiyoti va jamiyat rivojini shusiz tasavvur etish qiyin. Bu vazifani amalga oshirishning birdan bir yo'li ta'lim tizimini tinmay rivojlantirib borish orqali yosh avlodni ilm fan asoslari bilan chuqur qurollantirishdir. Zero ilm olish yo'lidagi izlanish insonni e'tiqodi va duyo qarashini shakllantiradi, ma'naviy axloqiy yo'l sari etaklaydi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritish bilan ilm fan, texnika soxalari bo'yicha ijodga istedodlarga keng yo'l ochildiki, bu xalqimizni buyuklikka daxldorligini qayta namoyish etib, iymon e'tiqodini, mehnat va ijodga fidoiyligini xaqiqatga yaqin ekanligini ko'rsata boshladi. Bugungi kunda mamlakatimiz xalqlari shunday ma'naviyatni bunyod etmoqdalarkim, bu mamlaklarda

---

<sup>2</sup> I.Karimov "O'zbekiston Respublikasi Konstutsiyasi 19- ylligiga bag'ishlangan marosimdagi maruzasi Xalq so'zi gazetasi. 2012-yil 8-dekabr

<sup>3</sup> Mirziyoyev Sh. 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning harakatlar strategi. T.; "G'ofur G'ulom" nashriyoti. 2017 yil 72 bet.

yashaydigan barcha xalqlarni, shod-hurramligi va bir-biriga sadoqati va mehr-oqibatining yuksalishini ta'minlangan xolda ilm ma'rifatga, san'at-madaniyatga, iymon e'tiqodga, mehnat va ijodga to'la shart sharoit yaratilgan bir buyuk ma'naviyatga ega bo'lgan jamiyat qurish yo'lida xammaning birdamlikka va mustaxkamlikka chorlaydi.

Bugungi kunda respublikamiz korxonalarida mehnat qilayotgan ayollar va o'smirlar mehnatini muhofaza qilishga katta ahamiyat berilmoqda.

Inson mehnati va bu mehnat jarayonida uning xavfsizligini ta'minlash har bir jamiyatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lmog'i lozim. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi"da hayot, erkinlik, mehnat va shaxsiy daxlsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan<sup>4</sup>.

Tasviriy san'at ilmi fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni xalqlar tarixini o'rganishga xizmat qiladi. Tasviriy san'atning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoa tuzumiga borib taqaladi. Bu vaqtda kishilar tevarak – atrofda sodir bo'ladigan voqealarni odam va hayvonlarning tasvirini toshlarga chizib, ularni kesib turli ko'rinish va mazmundagi haykallarni yasaganlar. Qadimdan kishilar san'at, tabiat hodisalari va kishilarning o'zaro munosabatlari, faoliyatlari va hulqiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaganlar.

Ayni paytda tavsiriy san'at asarlari kishilarning his – tuyg'ulariga kuchli ta'sir ko'rsatishi imkoniyatiga ham egadir. Rassomlar o'z asarlarida hayotni qanday ko'rsalar o'shanday emas, balki undagi aloxida e'tiborga molik haraktrli ko'rinishlarini tanlab oladilar, e'tiborsiz, ikkinchi darajali ko'rinishlarni tushirib qoldiradilar, eng muhimlaridan esa bo'rttirib ko'rsatadilar. Tanlash va bo'rttirish orqali rassomlar narsa va hodisalarning kishilar tafakkuri va hissiyotlariga samarali ta'sir ko'rsatishga erishadilar. U o'z ijodida borliq shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki unga asoslangan holda nimalarnidir o'zi o'ylab topadi, tasavvur etadi va to'qiydi. Demak san'at asarlari o'z mazmunida borliqni aks

---

<sup>4</sup> Qudratov O., G'aniyev T. Hayotiy faoliyat xavfsizligi. –T.:Aloqachi,2004.-3-b.

ettiribgina qolmay, ayni paytda ular rassomning turli hollarini ifodalaydi, tomoshabin ongini boyitadi, shuningdek kishilar ruhiyatiga ta'sir etib, ular ma'naviy olamini, bilim va tajribasini kengaytiradi.

Tasviriy san'atda tabiat, shahar, industrial – san'at, inter'er, ko'rinishlarining tasvirlanishini manzara janriga taaluqlidir. Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiatning haqiqiy, ya'ni hayotiy ko'rinishini tasvirlasa, bashqalarida borliq ijodiy tarzda, hayolan ifodalangan bo'ladi.

Tasviriy san'atning rangtasvir turida yaratilgan asarlar inson hayotini mazmunli qiladi, ma'naviy jihatdan boyitib, insonning go'zallikka bo'lgan ehtiyojlarini qondirish barobarida, uning his-tuyg'ularini uyg'otadi, ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi, ezgulik sari etaklaydi. Buning natijasida insonning ma'naviy o'sishishiga sharoit yaratiladi, ijtimoiy va shaxsiy hayotida eng murakkab muammolarni hal etishga yordam beradi, har bir kishi hayotda o'z o'rnini topishga ham ko'maklashadi. Shuning uchun har bir inson tasviriy san'atni tushunish, u bilan yaxshi tanishmog'i lozim. Shu nuqta'i nazardan aytish mumkinki tasviriy san'atda yaratilgan asarlar qaysi ko'rinishda bo'lmasin kishilarning his – tuyg'ulariga, ruhiyatiga ta'sir etuvchi ma'naviy go'zallik, ezgulik sifatida namoyon bo'ladi. Bu xususiyat tasviriy san'atni rangtasvir turi uchun ham xosdir.

Manzara janrida samarali ijod qilgan va san'at ihlosmandlariga manzur bo'lgan rassomlardan O'. Tansiqboyev, O.Qozoqov, R.Axmedov, N. Karaxanlarni aloxida tilga olish mumkin. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, tanlangan mavzuimiz **Dolzarb mavzu bo'lib, uni biz "Rangtasvirda manzara ishlashning o'ziga hos xususiyatlari"** deb nomladik.

**Ishning maqsad va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishini maqsadi, manzarada kompozitsiyani ahamiyati tadqiq etgan holda oltin kuz manzarasini yaratish. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutiladi;

- Tasviriy san'atning manzara janrining o'ziga xos jihatlarini o'rganish;
- Tasviriy san'atning manzara janrini vujudga kelish va rivojlanish bosqichlarini tadqiq etish;

- O`zbekiston tasviriy san`ati manzara janridagi asarlarining ilmiy-nazariy masalalarini tadqiq etish;
- O`zbekiston tasviriy san`atida ijod qilgan rangtasvir ustalarning ijodini o`rganish;
- Manzara ishlashda ranglar ustida ishlash usullari.
- Manzara ishlashda kompozitsiyani ahamiyatini aniqlash;
- Moybo`yoqda ishlash uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish:

**Ishning nazariy va amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishining natijalaridan oliy o`quv yurti talabalariga manzara ishlashda kompozitsiyani ahamiyatini tushuntirishda hamda bu borada tayyorlanadigan kurs ishlarida foydalanish mumkin.

**Ishning o`rganish darajasi.** O`zbekistonlik rassomlardan R.Axmedovning “Kuz”, “Oq tosh”, "Quyoshli kuz", "Kuz ranglari", O`Tansiqboyevning “Kuz tongi”, N.Karaxan “Oltin kuz”, kabi asarlari yaratilgan. Ularda asosan yurtimizning kuz faslida qanday ko`rinishga kirishi, uning betakror go`zalligi ranglar vositasida aks ettirilgan.

**BMIning ilmiy yangiligi.** Ishimizning **i l m i y y a n g i l i g i** mustaqil O`zbekiston tasviriy san`atini o`qitishda, xususan o`quvchi-yoshlar tasviriy san`at darslari jarayonida tatiatni idrok etish orqali realistik rasm chizish asoslarini o`rganishda yordam berishdan iborat.

**Ishimizning metodologik asoslari.** Bitiruv malakaviy ishimizda quydagi tadqiqod metodlaridan foydalaniladi: adabiyot va matbuot materiallari bilan tanishish, rassomlar ijodini taxliliy o`rganish, tabiatni kuzatish va eng maqbul naturalar tanlash, kompozitsiya yaratish jarayonini o`rganib borish, naturadan etyud ishlashning o`ziga xos xususiyatlarini aniqlash va xokozolar.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy va nazariy ahamiyati.** Ushbu ishning natijalaridan oliy o`quv yurtlari talabalariga rangtasvirning o`ziga xos xususiyatlari, undagi janrlarni o`rgatishda, shu bilan birga bu borada tayyorlanadigan o`quv kurslari, risolalar yaratishda foydalanish mumkin. uning amaliy–ijodiy ishidan talabalarga rangtasvir mashg`ulotlarida moybo`yoqda

ishlashda ko`rgazmali qurol sifatida va turli tadbirlarda tashkil etiladigan ko`rgazmalarda foydalanish mumkin. Yaratilgan ijodiy asardan rangtasvir, kompozitsiya, san'at tarixi mashg'ulotlarida ko`rgazmali material sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat. Amaliy – ijodiy ish sifatida “Rangtasvirda manzara ishlashning o`ziga hos xususiyatlari” mavzusida kartina taqdim etilgan.



## **1-bob. Rangtasvirda ijod qilgan buyuk rassomlar asarlari tahlili.**

### **1.1. O'zbek, rus yevropa rassomlarining manzara janridagi asarlarini o'ziga xos xususiyatlari.**

Tasviriy san`at turlarida ularda nima tasvirlanganligini asos qilib olinib janrlarga bo`lish qabul qilingan. Lekin janrlarga bo`linish tasviriy san`atning rangtasvir turida boshqa turlarga nisbatan yaqqolroq namoyon bo`ladi. Shunga ko`ra rangtasvirda natyurmort (narsa-buyumlar tasviri), portret (inson tasviri), syujetli-tematik kartina (hayot hodisalarini tasvirlash) janrlarni ajratish mumkin.

Tasviriy san`atda tabiiy yoki inson tomonidan o`zgartirilgan tabiatni tasvirlanishga bag`ishlangan janr manzara deyiladi. Manzara qishloq manzarasi, shahar manzarasi, industrial manzara, marina kabi ichki bo`linishga egadir. Manzarada rassomning borliqdan olgan tassurotlari, voqealikka g`oyaviy-hissiy munosabati aks etadi. Tabiat manzaralari tasvirida rassom dunyoqarashi, tabiatni idrok etishning ijtimoiy milliy va uslubiy xususiyatlari o`z ifodasini topganligini ko`rish mumkin. Shunga ko`ra, mashhur rassomlarning asarlarida manzara motivlarining ulug`vor-romantik, lirik yoki ijtimoiy-falsafiy talqinlarini uchratish mumkin.

Manzara asarlarida ba`zida inson tasviri, kichik syujetli sahnalarning uchratish mumkin, lekin bular manzara kompozitsiyasida hal qiluvchi rol o`ynamaydi, balki manzarani to`ldirish, tasvirning jonli chiqishi uchun xizmat qiladi xolos. Bunday asarlarga B.Polenovning “Moskva hovlisi”, A.Plastovning “Birinchi qor” kartinalarini misol tariqasida ko`rsatish mumkin.

Manzarada perspektiva qonun-qoidalari juda katta ahamiyatga egadir. Perspektivaning chiziqli perspektiva, havo perspektivasi va yorug`lik perspektivasi ko`rinishlari mavjud. Chiziqli perspektiva narsa va buyumlarni kuzatuviga nisbatan o`z shakli va o`lchovlarini o`zgartirib borishni ifodalaydi. Bunda narsalar uzoqlashib borishi sari ularni o`lchovlari kichrayib borish, yaqinlashgan sari esa ularni o`lchovlari kattaroq ko`rinadi. Manzaradagi perspektiva qisqarishni tasvirlashda quyidagi qoidaga amal qilinadi. Birinchidan, kuzatuvchiga yaqin turgan ob`yekt tasvir tushadigan yuzaning pastki qismida tasvirlanadi va aksincha,

kuzatuvchiga nisbatan uzoqda ko`rinadigan narsalar tasvir tushadigan yuzaning yuqori qismiga joylashadi. Kuzatuvchiga nisbatan juda uzoqda ham, yaqinda ham joylashmagan ob`yektlar tasvir tushadigan yuzaning o`rtasida joylashadi. Perspektiv qisqarishni manzarada aks ettirish ko`rish nuqtasiga nisbatan olinadi. Ko`rish nuqtasidan hayolan chiqarilgan chiziqlar ob`yektning yuqorisi va pastki qismidan o`tkaziladi. Manzaradagi boshqa predmetlarning perspektiv qisqarishini belgilashda ko`rish chizig`ini o`zgartirmaslik talab qilinadi. Manzara chizishda xuddi shu usulda har qanday narsalarning tasvirini perspektiv qisqarishini ishlash mumkin. Narsalarning o`lchovlarinihaqiqatga yaqin va to`g`ri aks ettirishda perspektiv qisqarish usuli juda qo`l keladi.

Rus epik manzara rassomligining mashhur vakili I.I.Shishkinning “O`rmon olislari” kartinasida daraxtzorning quyuc ranglardagi manzarasi osmonning tumansimon ko`rinishi bilan uyg`unlashib ketgan, go`yo chek-chegarasi ko`rinmayotgan o`rmon olislariga cho`zilib, ufq bilan birlashib ketgandek taassurot tug`diradi. Manzaradagi bu xususiyat havo perspektivasiga misol bo`ladi. Bizdan uzoqlashgan sari narsalar havoga “singib” ketgandek tuyuladi. Agar narsalar qunt va aniq tarzda tasvirlansa, u bizga yaqin turgandek, narsalar belgi-xususiyatlarining xira tasvirlanishi esa bizdan uzoqlashish taassurotini beradi. Shuning uchun manzarada oldingi plandagi narsalardagi yorug`-soyalar, ranglar aniqroq tasvirlanib, uzoqlashgan sari narsalarning rangi havorangga moyillashib, xiralashib boradi va kuzatuvchiga ular uzoqlashish tasavvurini beradi. Shu bilan birga manzarada yorug`lik perspektivasi ham muhim rol o`ynaydi. Yorug`lik perspektivasi, oqshom manzarasi tasvirlangan kartinalarda alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, A.Kuinjining “Ukrainada oqshom” kartinasida ob`yektlarning barchasi quyoshning kechki nurlariga chulg`angan holda qizg`ish rangda tasvirlangan.

Manzara rangtasvirida rang asosiy ifoda vositasi hisoblanadi. Ranglar vositasida rassom, manzarada o`zining g`oyaviy niyatini, ruhiy holatidagi ko`tarinkilik, hatto o`zini tushkun kayfiyatini ifodalashi mumkin. Buning asosiy sababi ranglarning inson ruhi holatiga ta`siri bilan izohlanadi. Ranglarning o`ziga

xos xususiyatlarini rangshunoslik fani o`rganib, bu fan o`zini oldiga ranglarning kelib chiqishi, ularning inson ruhiyatiga tahsiri, ranglar vositasida kishilarda uchraydigan kasalliklarning qanday davolash va shunga o`xshash juda ko`p muammolarni tadqiq etib o`rganadi. Xatto YAponiyani Tokio shahrida Rang instituti bo`lib, u rangshunoslik fanidagi muammolarni o`rganadi va ularning xal qilish yo`llarini izlaydi.

Ranglarning tabiatda hosil bo`lishi va tarqalish xodisasini qadimdan olimlarning qiziqtirib kelgan. Buyuk rangtasvir va uning nazariyotchilaridan Chennino Chennini (taxminan 1400 yillar), Leon Battista Alberti (1404-1472), P`ero della Francheska (1416-1492), Leonardo da Vinchi (1452-1519), Djyurdjo Vazari (1511-1574), Djanraolo Lomatstso (1538-1600), Al`brekt Dyurer (1471-1528), Frantsisko Pacheko (1564-1654), kabilar o`z ishlarida ranglar haqida ma`lumot berganlar. Mashhur olimlardan I.N`yuton, Lomonosov, Gel`mgoltslar ranglarning ilmiy asosda tekshirib, o`rganganlar I.Nyuton oq yorug`likning ko`p rangli ekanligini isbotlar, uning spektr ranglarga prizma yordamida ajratgan. Lomonosov esa uch asosiy rang haqida ta`limotning ilgari surgan va bugungi kunda ushbu ta`limot o`z isbotini topgan. G.L.Gel`mgol`ts ko`p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarni uchta asosiy alomati – rang toni (nomi), rangning och to`qligi va to`yinganligi asosida turkumlash kerakligini ko`rsatgan. Rangshunoslik rassom uchun ijodiy jarayonga tayyor “retsept”ni bermaydi, lekin u rangshunoslikga oid bilimlarni bilishi zarur.

Quyoshning oq yorug`ligini prizma yordamida spektr ranglarga ajratilsa, unda ettita rang ham bo`ladi. Bular qizil, olovrang, sariq, yashil, havorang, ko`k, binafsharangdir.

Jismlarning ranglari ikki turga: Axromatik va xromatik ranglarga bo`linadi. Axromatik (“rangsiz” degan ma`noni bildiradi) ranglarga oq va qora ranglar, ularning qorishmasidan hosil bo`lgan barcha ranglar kiradi. Xromatik ranglarga (ma`nosi “rang”) -qora, oq va kulranglardan tashqari barcha ranglar kiradi. Shuningdek ranglar issiq va sovuq ranglarga ajratiladi. Issiq ranglar olovni, qizigan jismlarni, quyoshni eslatuvchi sariq, to`q sariq, sarg`ish, zarg`aldoq va qizil rang

kabilar kiradi. Sovuq ranglarga muzni, qorni, suvni eslatuvchi havo rang, zangori, ko`kish yashil, to`qbinafsha kabi ranglar kiradi.

Ranglarning o`ziga xos xususiyatlari mavjud. bular: rang yorqinligi-rangning tushayotgan yorug`lik nurlaridan ko`p yoki kam miqdorda jilolanish xossasidir. Yorug`lik nurlari ko`p aks etsa, rang rch tusda, kam aks etsa to`q tusda jonlanadi.

Rang to`yinganligi-xromatik rangning yorqinligi bo`yicha o`ziga teng keladigan kulrang axromatik rangdan ko`p yoki kam miqdorda singdirish qobiliyatiga aytiladi.

Ranglarning vazminligi-ranglarning kishida og`ir va engil taassurotlar uyg`otuvchi xususiyati, to`q va och ranglar.

Ranglarning tozaligi-mazkur rang tusining spektr tusiga yaqinlashib borishi. Spektr ranglari eng toza ranglar hisoblanadi.

Ranglarning tenglashuv qonuni-tenglik, ranglarning o`zaro muvofiqlashuv qonuni, to`ldiruvchi va qarama-qarshi ranglar misolida ko`rish mumkin.

Ranglarning fazoviy xususiyatlari-ranglarning zichligi, engilligi, yuzani yaqinlashtirib yoki uzoqlashtirib ko`rsatib qobiliyati.

Tanlab singdirish-predmetlarning spektrdagi barcha ranglarni yutib, birortasini qaytarish xususiyatiga aytiladi<sup>5</sup>.

Manzarachi rassom ranglarning o`ziga xos xususiyatlaridan tashqari asosiy va qo`shimcha ranglar haqida ma`lumotga ega bo`lishi kerak. Asosiy ranglar tabiatda mavjud bo`lgan sariq, qizil va zangori ranglar hisoblanadi. Qo`shimcha ranglar esa qizil, sariq zangori ranglardan hosil bo`ladigan omuxta ranglardir. Shuni unutmaslik kerakki manzara ishlashda ayrim ranglarni yuqoridagi asosiy ranglardan hosil qilinganda ularni yorqinligi talabga javob bermaydi. Rassomchilikda usta asosiy rangdan tashqari boshqa ranglardan iborat bo`yoqlarning mavjudligi shu bilan izohlanadi.

Manzara ishlashda rassom o`z g`oyasi, kayfiyatining berishda ranglarning kontrastlik xususiyatidan unumli foydalanadi. Kontrast-qarama qarshilik, zidma-

---

<sup>5</sup> Н.Норматов. Камалак яшайдиган уй. –Тошкент, “Юлдузча” -1990й. 105-106 бетлар.

zidlik, ranglarning o`zaro qarama-qarshiligidir. Bir rangning yonida ikkinchi rangning yanada yorqinroq, chiroyliroq ko`rinishi. Masalan yashil rangning yonida qizil rang yanada jozibali, chiroyliroq ko`rinadi. Kontrastlik manzarasida o`zgacha kayfiyat tug`diradi. Rassomlar tabiatda yuz beradigan turli hodisalarni tasvirlashda kontrastlikdan unumli foydalanadilar. F.A.Vasil'evning "YOmg`ir oldidan" kartinasida (xolst, moybo`yoq 1869 y. Tret'yakov galereyasi. Moskva) ranglarning kontrast xolatidan unumli foydalanilganini ko`rish mumkin. Unda ob-havo ayniganligi, bulutlar bostirib kelayotganligi, lekin quyoshning qizg`ish nurlari manzarada qarama-qarshilik vujudga keltirganligi, hali zamon yomg`ir yog`ib qolishini his qilamiz. Rassomning yutug`i shundaki shunchalik qarama-qarshilik ranglarning zidma-zidligiga qaramasdan, manzaradagi hamma rang, tuslar bitta koloritga bo`ysundirilgan.

Kolorit lotincha "color" "rang" va "bo`yoq" ma`nosini bildiradi. Manzaraning umumiy ko`rinishida biron-bir rang ustivor bo`lsa asar kolorit shu rang nomi bilan aytiladi. Boshqa ranglar ana shu rangga bo`ysundiriladi.

Rassomning vazifasi-o`zi in`ikos etayotgan ranglarni manzarada aks ettirishidir. Rang orqali o`z fikr va tuyg`ularining barcha qirralarini ifodalashda, u surat doirasida xilma-xil bo`yoqlar vositasida ranglar mutanosibligi va xamohangligini ifoda ettirishga intiladi. Manzarada kompozitsion echim asardagi barcha qismlar, ranglar tizimini o`zaro bog`liqligini anglatadigan kolorit shaklida namoyon bo`ladi. Kolorit yorug`lik, rang ohangi, vazn, moddiy ashyolarni o`zida yaxlit tarzda birlashtiradi. Kolorit ko`rinib turgan voqealikni vujudga keltirish bilan cheklanmaydi, balki rangli qismlar qorishmasi orqali voqealikni badiiy tarzda umumlashtirishni hamda undan eng muhim, eng qiziqarli tomonlarini ajratib ko`rsatishni taqozo etadi. Iste`dodli rassomlar hech mahal koloritni bosh maqsad tarzida namoyish etmaydilar, balki undan hayot haqiqatini yaratish va o`zlarining g`oyaviy-badiiy niyatlarini ro`yobga chiqarish vositasi sifatida foydalanadilar.

Kolorit masalasida juda ko`p tadqiqotchilar shug`ullanganlar. Nemis tadqiqotchisi F.Ennike kolorit, kolorizm haqidagi turli qarashlarni umumlashtirgan holda uni uch toifaga bo`lgan;

1. Naturani boricha o`z holida tasvirlash.
2. Qarama-qarshilik asosida, ya`ni yorug`-soyani, chiziq va chegarani belgilash asosida ishlash.
3. Qarama-qarshi ranglar bilan, ya`ni issiq va sovuq ranglar asosida chegarasiz naturaning asl holatidan chetga chiqqan xolda bo`rttirib tasvirlash.

Shuningdek, yana bir nemis olimi E. Utits ham kolorizmni uch toifaga bo`ladi:

1. Polixromiya – och va sovuq ranglarga yaqinlik.
2. Garmoniya – ranglarning yaxditligi, o`ziga xosligi, badiiy qiymati.
3. Kolorizm – rang haqida umumiy tushuncha.

Bu kabi misollarni ko`plab keltirish mumkin. Ayniqsa XIX asrga kelib rang haqidagi tushunchalarni har tomonlama o`rganib, tahlil qilishga ehtiyoj ortib bordi. Ijodkor rassomlar uchun rang, kolorit tushunchalarining tub ma`nosi muhim ahamiyat kasb etdi.

Kolorizmning asosiy shartlari quyidagilarni tashkil qiladi.

1. Bo`yoqning asar yuzasidagi uyg`unligi, go`zalligi
2. Asardagi buyum va kishilarning rangini to`g`ri tanlanishi, ya`ni kompozitsion echimga mos ma`no kasb etishi.
3. Asarda qo`llanilgan ranglarning mutanosibliigi, rang berish uslubini to`g`ri tanlanganligi. Rangning yorug`lik bilan bog`lanishi va yaxlitligi.
4. Naturani o`z holicha etakchi lokal rangi bilan emas, balki uni yanada go`zal qirralarini tasvirlashda, masalan oddiy ko`z bilan qaralganda natura kulrang bo`lib ko`rinsada, kolorit-rassom unda yanada go`zalroq ranglarni his qilishi va ko`rishi.
5. Asardagi koloritning eng asosiy shartlaridan yana biri rangning xususiyati, mohiyati, qarama-qarshilik asosida topilgan yaxlitlik va badiiy uslubni saqlab qolinishidir. Asardagi yaxlitlikka va ifodaviylikka ranglar orqali erishishdir.
6. Kolorit-rassom uchun toza rang yoki qimmatbaho bo`yoq asosiy o`rin tutmasligi, ya`ni kolorist matoga biror bir rang qo`ygani bilan emas, balki

badiiy g`oyani tomoshabinga mohirlik bilan etkazishi, qalbida kechayotgan his-tuyg`ularni unga ham ko`rsata olishidadir.

Kolorit bilan badiiy ifodaning nur-soya vositasi juda yaqin turadi. Nur-soya yordamida voqelik hodisalarining jism xossalari ifodalanadi. Nur-soyada yorug` va qorong`u tomonlarining qat`iy belgilab qo`yilgan, almashinib turadigan qonuniyati amal qiladi. Nur-soya rassomlikda keng qo`llanilib, u asarni kompozitsion echimini ajralmas qismidir. Manzarada nur-soya vositasini voqelikdagi nur va soya uyg`unligini vujudga keltiradi. Rang, rang tusi voqelik barcha narsalar va xodisalarga xos. Rassom tabiatning nur-soya boyligini aynan ko`chirmaydi, balki uni sinchkovlik bilan tanlab ajratadi, nur-soya vositasida narsalar hajmligini, tabiat go`zalligini, havo tiniqligini tasvirlab, voqelikda nur va soya tovlanishining eng nozik qirralarini namoyish qildi. Nur-soya tabiatdagi ko`z ilg`ayotgan narsalar ranglarini badiiy yaratibgina qolmay, u rassom badiiy niyati mazmunini, uning voqelikka bo`lgan munosabatini ham ifodalaydi.

Manzarada badiiy tuzilma ya`ni kompozitsiya katta ahamiyat kasb etadi, rassom yozuviga o`xshab voqelikni ketma-ket aks ettirmaydi, balki tasvirlanayotgan voqeaning muayyan bir lahzasini ajratib ko`rsatib beradi. Manzarada badiiy tuzilma fazoli tabiatga molik bo`lsa ham, tomoshabin hissini uyg`otadi. Rassom badiiy tuzilma va vazn orqali o`z asarining vaqtli doirasini kengaytiradi.

Manzarada barcha narsa rassomning niyati, g`oyasini ifodalashga qaratilgan. Manzara kompozitsiyasining mukammalligi asosiyning ikkinchi darajalilardan farqlay olishda ko`rinadi, manzarada har bir narsa o`z o`zini va vazifasiga ega bo`lishi lozim. Manzara kompozitsiyasida asosiy ob`yektga urg`u berilib, ikkinchi darajalilar darrov ko`zga tashlanmasligi kerak. Rassom manzarada asosiy ob`yektni rang, tus, detallarning aniqligi bilan ajratib ko`rsatish mumkin. Manzara kompozitsiyasida shuningdek muvozanatga ham e`tibor beriladi. Agar rassom naturani kuzatib, kerakli rakursni belgilab olmasa, tasvir xuddi bir tarafga og`ib ketayotgandek, manzaraning bir tomoni bo`sh qolgandek taassurot tug`diradi. Kartinada muvozanatni saqlashda tasvirlanayotgan ob`yektlarning miqdori va

qanday joylashganligi bilangina emas, balki ularning rang-tusi bilan ham belgilanadi. Kartinning bir tomonidagi yorqin ranglarni ikkinchi tomonida ham takrorlash kerak bo`ladi.

Manzara ishlashdagi muhim jihatlardan biri unda ob-havoni, faslni, kunning turli vaqtlardagi xolatlarini tasvirlay olishdir. Buni kartinada umumiy tus va rang kayfiyatini bera olish deyiladi. Tabiatning tez o`zgaruvchan holatlari o`ziga xos rang gammasini talab qiladi. Shuning uchun rassomlar tabiatning turli holatlardagi kunning turli vaqtlarida va turlicha ob-havo sharoitida ko`plab etyudlar bajaradilar. Agar manzaradi umumiy tus va rangdagi uyg`unlik, birlik mavjud bo`lmasa, bir necha xil rang-tus xolatlarini yuzaga keltirib, bunday asar nafaqat tabiat go`zalligini ifodalay olmaydi, balki tomoshabin his-tuyg`ulariga ham ta`sir ko`rsatolmaydi.

Tasviriy san`atning ilk asosi-qalamtasvirdir. Qalamtasvir manzarada muhim rol o`ynaydi. U manzaradagi detallarni shaklini, atrof chiziqlarini, badiiy tuzimini belgilaydi, narsalarni har birining o`z o`rinlarini, asosiy belgilarini ko`rsatib beradi. Shuning uchun rassomlar qalamtasvirni manzaradagi ranga katta ahamiyat berganlar. Tasviriy san`at tarixiga nazar tashlasak buyuk rassomlardan Leonardo da Vinchi, Rembrandt, Mille, Si`vestr Shedrin, Aleksandr Ivanov, F.A.Vasil'yev, A.K.Savrasov, I.I.Shishkin, V.M.Vasnetsov, I.I.Levitan, V.A.Serov, M.V.Nesterov, A.A.Rilov kabilar manzara ishlashda qalamtasvirni ahamiyatiga yuqori baho berishib, naturadan juda ko`plab suratlarni qalamtasvirda ishlaganlar.

Manzara kishilarda eng ko`p hissiyot uyg`otuvchi janr hisoblanib, u o`zining ta`sirchanligi bilan insonning ruhiy va ma`naviy olamini boyitadi. Ona tabiatni o`ziga xos tomonlari va go`zalligini o`zida to`laqonli aks ettirgan, ana shu o`ziga xoslik va go`zallikka nisbatan rassomning munosabatini ko`rsatuvchi asarlar kishilarda tabiatga muhabbat his-tuyg`ularini uyg`otadi va unga bo`lgan munosabatini yaxshi tomonga o`zgartiradi.



## **1.2. Mustaqillikka erishgandan so'ngi yillarda manzara janirida yosh rassomlar ijodlarini o'ziga xos tomonlari.**

O'zbekiston tasviriy san'ati juda qisqa vaqtda rivojlanib, katta yutuqlarga erishdi. O'zbekiston san'ati zafarli yo'lni bosib o'tdi. Respublikamiz rassomlari ko'pgina ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, san'atimiz ta'sirchanligining ortib borayotganini namoyish etdilar. Rassomlarimiz ko'pgina janrlarda ijod qilib kelmoqdalar, manzara, natyurmort, portret va boshqa. Natyurmortda bozorlarimizning to'lib toshgan noz-ne'matlarini, manzara janrida esa, o'lkamizning go'zalligini va bepoyonligini, oddiy tabiat ko'rinishidagi go'zallikni to'laqonli ifodalashga harakat qilganlar. Shu bilan birga qadimdan qolgan butun dunyoga taniqli ajib me'morchilikning nodir yodgorliklarini o'z asarlarida ko'rsatdilar. Portret janrida esa Vatanimizning ilg'or kishilarini, mehnatkash xalqni, shoir, rassom, musiqachilarni tasvirladilar. Bizning O'zbekiston Vatanimiz ajoyib iste'dodli rassom va haykaltaroshlarni yetkazib berdi. Bular ichida Mannon Saidov, Iskandar Ikromov, R. Axmedov, Chingiz Axmarov, Malik Nabiyeu, Ne'mat Qo'ziboyev, Javlon Umarbekov, Baxodir Jalolov, Alisher Mirzayev, Akmal Ikromjonov, Temur Sa'dullayev, Ne'mat Hakimov, Osimxon Vosixonov, G'ofur Abduraxmonovlar, Damir Ro'ziboyev, Ilxom Jabborov alohida mavqyega ega. O'zbekiston xalq rassomi Alisher Mirzayev rangtasvir ustasi xalqimiz an'alariga, boy va sermazmun o'tmish tasviriy san'at merosiga hurmat bilan qaraydi. Rassom o'z xalqiga xos psixologik kechinmalarni chuqur tahlil qila oladi. Rassom ona-tabiat bag'rida o'zbekona an'analarni, g'oyalarni, beg'ubor o'zbek bolalarini, lohar qizlarni, mushtipar onalar kabi obrazlarni aks ettira olishga muvaffaq bo'ldi. Jumladan, "Toshkent - tinchlik va do'stlik shahri" triptixi, "Bola xonada", "Intizorlik", "Yosh oila haqida qo'shiq" kabi o'nlab asarlar moybo'yoqda yaratilgan<sup>6</sup>. Umuman rassom tabiat va jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarni e'tiborsiz qoldirmaydi. Rassom rangtasvirlarga shunday jon bag'ishlaydiki, undagi go'zallik sirlari odamlarni ezgulikka yetaklaydi. Rassom

---

<sup>6</sup> Абдуллаев Н. Санъат тарихи. II том – Тошкент, 2001. – 14 б.

asarlari bugungi kunda xalqimiz hurmatini qozonish bilan birga, ko'pgina xorijiy davlatlarda ham ma'lum va mashhurdir.

Baxodir Jalolov ham O'zbekiston xalq rassomi bo'lib, zamonaviy rangtasvir san'ati rivojiga katta xissa qo'shib kelayotgan iste'dodli rassomlardan biridir. B.Jalolov tasviriy san'at borasidagi tahsilni davom ettirib, keyinchalik Sh.Axmarov, R.Choriyev, Y.P.Melnikov, B.D.Korolyovlardan tasviriy san'at sirlarini o'rgandi. Shu sababli ham u yaratgan portretlarda yuksak mahorat aniq ko'zga tashlanib turadi. Uning ijodidagi tuyg'ular uyg'unligi tomoshabinni o'ziga mahliyo etib qo'yadi. U portret san'atida ko'p yutuqlarga erishdi. Uning to'laqonli asarlarida o'zbek xalqining sevimli farzandlari siymosi o'z ifodasini topgan. U bir katta seriya portretlarni yaratadi, bular ichida akademiklar, rassom va boshqa taniqli odamlar obrazlari bor. B. Jalolov ijodida olam sirlari o'zgacha talqin etiladi. Bunga, "Gul va Rayhon afsonasi", "Nido", "Baxt qushi", "Abadiy va navqiron Xindiston", "XXI asr Madonnasi" kabi ko'plab asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Mustaqil O'zbekiston tarixiga bag'ishlangan O'zbekiston xalqlari tarixiy muzeyi devoriga ishlangan monumental ko'rinishdagi surat jiddiy va mazmunli tarixiy dalillar orqali salobatli tasvirlanishi bilan har qanday tomoshabin e'tiborini o'ziga jalb qila oladi. Polotnoni kuzatgan tomoshabin boy tarix sahifalariga ega bo'lgan o'zbek xalqining buyuk va qudratli ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qiladi. B.Jalolov ijodi shu jihati bilan qadrlidir<sup>7</sup>.

Tasviriy san'atining o'lkamiz xududidagi zamonaviy jihatlarini ijodkor Damir Ro'ziboyev faoliyatida yaqqol ko'rish mumkin. Dastlab rangtasvir va grafika san'ati bilan shug'ullangan D.Ro'ziboyev haykataroshlik olamiga asosan 60 yillarda kirib keldi. San'atkor ijodida shakl va hajmlarning o'ziga xosligini harakatlarni tabiiylik bilan tasvirlanishi, u tanlagan mavzularning rang-barang va keng qamrovligidan ham yaqqol sezish mumkin. Uning bir qancha haykallarida xalqimizning madaniy hayoti va ziyolilar qiyofasini aks ettirgan asarlariga duch kelamiz. Shu bilan birga u portret janrida ham ijod qiladi. San'atshunos olim R.Tog'tash obrazi, rassom V.Saviskiy va Saida portretlarida zamondoshlarimiz

---

<sup>7</sup> Қаранг: Ойдинов Н. Тасвирий санъат тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – Б 60-89.

obrazlari to'laqonli o'z ifodasini topgan. D.Ro'ziboyev haykaltaroshlik san'atida katta bir maktabni o'tab kelayotir. Uning izlanishlari rang-barang uslublarga boy. Buni biz san'atkor ijodida rangli haykaltaroshlik san'atining yuzaga kelganligi orqali guvohi bo'lishimiz mumkin. Ro'ziboyev haykallaridagi shakl va hajmlarga bo'yoq berish bilan ularning sehrli olamini yanada mo'jizali qila oladi. San'atkor bu bilan qoniqmasdan haykalda aks ettirilayotgan voqeyani rangin sirlarini matolarda yanada to'ldiradi. Yana bir muhim tomoni D. Ro'ziboyevning izlanishlari kelajak muammolarini talqin qilishga qaratilgan. San'atkor ko'tarinki rux bilan musiqa, rangtasvir asarlarini o'rganib, o'z haykallarida mujassamlashga intiladi. Manzara janrining ajoyib fazilatlaridan yana biri uning asarlarida xissiy mazmundorlik boyib borayotganligidadir. Ana shunday mazmundorlik orqali u inson ma'naviyatini tobora to'laroq qamrab ifodalashga harakat qiladi. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixi - jahon tasviriy san'ati tarixining ajralmas qismidir. O'zbekiston san'ati boy merosga ega. Hozirgi zamonda esa bizning rassomlarimiz butun dunyoga taniqli bo'lib qolgan. Dekorativ-amaliy san'atimiz esa qadim zamonlardan odamlarni zavqlantirib kelgan. Ustalarimiz ijodi nafaqatgina mustaqil O'zbekistonda, balki boshqa mamlakatlarda ham o'z obro'-e'tiboriga egadir.

Oxirgi o'n yillar davomida xorij va respublikada o'tkazilayotgan ko'p sonli guruhiiy va shaxsiy ko'rgazmalarning katta qismi an'anaviy tarzda dasgohli rangtasvir asarlaridan tashkil topgan. Mustaqillik yillarida o'z navbatida ustivor, ya'ni rassomlar ijodining hisoboti tarzida uyushtirilgan ko'rgazmalar muhim o'rin egalladi. Mamlakatimiz mustaqillik kuniga bag'ishlangan, doimiy o'tkazib kelinayotgan ko'rgazma va bu borada eng yetakchi bo'lib keldi. Bu ko'rgazmada Respublika miqiyosida tasviriy va amaliy san'atning barcha turlarida yuzaga kelgan yetuk va namunali asarlar namoyish etildi, uning asosiy qismini esa rangtasvir asarlari tashkil etdi.

Respublika umummilliy ko'rgazmalarida Toshkentlik rangtasvirchilar asosiy guruhni tashkil etib kelmoqda, bu esa keyingi yillarda go'yo qonuniy tarzda kechmoqda. Mustaqillik yillarida, shuningdek, badiiy ta'lim markazlarini kengaytirish masalasi dolzarb deb qaraldi. 1997 yilga kelib, O'zbekiston Badiiy

Akdemiyasining tashkillashtirilishi bilan boshlang'ichdan to oliygacha bo'lgan badiiy ta'lim tizimi paydo bo'ldi. Milliy rassomlik va dizayn instituti, Respublika badiiy kollej va litsey internati, shuningdek, Toshkentdagi o'quv yurti bilan bir qatorda viloyatlar va Qoraqalpog'istonda ham tasviriy va amaliy san'at o'quv yurtlaridan iborat tarmoq vujudga keldi.

Rangtasvirning bugungi kundagi grafik xududi to'g'risida gapiradigan bo'lsak, Samarqand, Andijon, Buxoro, Namangan, Nukuslar Toshkent kabi ko'zga ko'ringan markazlarga aylanmoqda. Samarqanda eng yorqin va iste'dodli rassom A. Isaev hisoblansa, Andijonda A. Bakirov, U. Boltaboev, N. Holiqov singari rangtasvirchilar samarali ishlamoqdalar. Namanganda esa I.Valixo'jayevni ko'rsatish mumkin. Buxorodag o'ziga xos iste'dodli rangtasvirchilar orasida M. Abdullayev, B. Salomov, Z. Saidjonovlarni alohida ta'kidlash joiz. 1997 yilda O'zbekiston Badiiy Akademiyasiga uzviy bog'liq tarzda uning Qoraqalpoq bo'limi tashkil etildi. Unga Akademiyaning haqiqiy a'zosi J. Izentoev rahbarlik qilmoqda. Mazkur bo'limda B. Aytmurodov, V.Japarov, B. Serekeyev kabi realistik yo'nalish asosida ijod etayotgan, iste'dodli musavvirlar ijod qilmoqdalar. Agar dasgohli rangtasvir uslubiy yo'nalishlari va oqimlari haqida gapiradigan bo'lsak, hatto ular orasidagi chegaralar shartli xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramay, ularni bir necha guruhlariga ajratish mumkin. Bunda esa birgina rassomning bir necha yo'nalishlarida ijod qilishni ham ta'kidlash lozim.

Realistik, akademistik yo'nalishda Mustaqillik yillarida sermahsul ijod qilayotgan rassomlarni an'anaviy tarzda keksa va o'rta avlod rassomlar ijodiga mansub deyish mumkin. Ular orasida O'zbekiston xalq rassomlari va fahriy akademiklar R. Ahmedov, N. Qo'ziboyev, M. Nabiyev, T. Ogonosov, M.S.Saidov, M.Yo'ldashev, R.Choriyev, T.Kuryazov, Akademiyaning haqiqiy a'zolari S.Abdullayev, B.Boboyev, T.Mirjalolov, V.Burmakin, J. Izentoyev, A.Ikromjonov, Y.Tursunnazarov, T.Qo'ziyev, shuningdek, taniqli rangtasvirchilar R.Xudoyberganov, M. Nuriddinov, E. Masharipov, V.Yenin, Z.Faxriddinov, A.Aliqulov, Sh.Qo'zieva, R. Rizamuhammedov, O.Mo'minov, R.Gagloeva, A.Mirasoatov, Yu.Taldikin, Yu. Strelnikov, Yu.Melnikov, M.Toshmurodov,

V.Ziyoyev va boshqalarni sanab o'tish mumkin. Ularning asarlarida bu yo'nalish uchun an'anaviy bo'lgan tarixiy va janrli kartinalar, portret, manzara va natyurmort kabi janrlar va mavzular o'z ifodasini topadi.

Mustaqillikni qo'lga kiritilishi va yangi mafkuraning o'z mavqeiga erishishi natijasi o'laroq, milliy tarix alohida ahamiyat kasb etdi. Davlatimiz ravnaqi va mustaqilligiga ulkan hissa qo'shgan O'zbekistonning ko'zga ko'ringan madaniyat va tarix namoyondalari siyosiy unutishdan yo'qlikdan qayta tug'ilishi bilan san'atda ularning portretlari galereyasi vujudga kelishiga turki bo'ldi. 1990-yillarda o'zbek rangtasvirida portret janrining asoschisi, yetakchi portretnavis, akademik A. Abdullayev ham ijodiy faoliyatini davom ettirdi. Butun umr davomida u iste'dodli va ma'anviy go'zal insonlarga hurmatini saqlab qoldi. Musavvir mo'yqalamiga mansub har bir portret kishilarning chuqur ma'naviy dunyosini akslantiruvchi rassom bilan portret qahramoni va portret bilan tomoshabin o'rtasidagi haqiqiy va ochiq munosabatni taqozo etuvchi manbadir. 1990-yilda A. Abdullayevning 1984-yilda yaratilgan mashhur avtoportretini turli davr xalqlariga saqlanayotgan dunyoning yirik to'plami, Uffitsidagi (Italiya) kartina galleriyasiga berilishi O'zbekiston san'ati uchun olamshumul voqeya bo'ldi. 2001-yilda esa musavvir "Ofarin" respublika sovrinining "San'atga baxshida umr" nominatsiyasi bilan taqdirlandi.

Akademik R. Ahmedov o'z portretlarida epik kenglik va teranlikka erishadi. Uning qahramonlari oddiy insonlar, qishloq kishilari bo'lib, aynan, ularda musavvir donishmandlikni, ma'naviy poklikni, yuksak ahloqiy qoidalarini gavdalantiradi. ("Jizzaxlik ayol", 1992; "Nigina" 1993)

Zamondoshlar obrazlari akademik R.Choriyevni ham qiziqtiradi va o'ziga jalb etadi. Ko'p sonli ijodiy safarlar natijasida, musavvirning butun boshli portretlar galereyasi vujudga keladi. Ular orasida "Boysunlik qariya" (1996), "Sayroblik go'zal" (1997) singari o'z xalqining eng yaxshi ma'naviy-ahloqiy fazilatlarini tarannum etuvchi murakkab kompozitsion yechimdagi portretlari sanab o'tiladi.

A.Ikromjonovning ilk ishlarida esa realistik asos kuchli ta'sir ko'rsatadi. Uning portretlari yuksak mahorat va diqqat bilan ishlanganligi, bo'yoqlarning qo'yilishi, naturani, hatto, fotosuratgacha taxlil etib tuzilganligi shuningdek, obrazning ruxiy to'laqonligi ("Malika portreti" 1993, "Madina" 1993) bilan ajralib turadi.

O'z ohanglari va mo'yqalamiga ishonch bilan yondasha olgan R.Xudoyberganovning portretlari ham kishini befarq qoldirmaydi ("Xojar xola" 1999). Avvalgi ustalar uslubini qo'llagan holda musavvir hech qanday yordamchi vositalarsiz, to'q fonda portretlar yaratadi-ki, ular qahramon qiyofasini yanada mukammalroq chiqishida yetakchilik qiladi. Uning ajoyib badiiy asarlaridan biri "Navro'z-2001" namoyish etilgan "Bastokor R.Abdullayev portreti"dir

1990-yillarda portret janrida B.Jalolov faol ishtirok qildi. Shuni ta'kidlash joizki, realistik chizmalar yaratishda u mislsiz darajaga erishdiki, bu borada unga hech kim tenglasha olmaydi. Oxirgi o'n yillikda yaratilgan "Saudiya Arabistonni qiroli Araviy Faxd ibn Abdul Aziz" (1992), Akademik S.Azimov portreti (1998) va boshqa polotnolarni musavvirning o'zbek rangtasvirchilari orasida dunyo talablari darajasida yaratgan asarlari sarasiga qo'shish mumkin.

S.Raxmanov shunday rassomlar sarasiga kiradiki, uning ijodida portret asosiy o'rin egallaydi. Oxirgi yillarda yaratgan eng yaxshi portretlari qatoriyada "Yunus Rajabiy portreti" 1993, "Germaniyaning O'zbekistondagi elchisi G.Kun portreti" (1999) alohida ahamiyat kasb etadi. Keyingi ko'rgazmalarida O'zbekistonning mashhur rangtasvirchi rassomi V.Burmakin portretlari ham munosib joy oldi. Lekin, musavvirning avvalgi ishlariga qiyoslagan tarzda, 90-yillarda yaratgan portretlarini birmuncha sust ekanligi tanqidchilar tomonidan ta'kidlanadi.

V.Shevchenko O'zbekistonning chegara himoyachilari turkumi – I.Ibroximov, Sh.Rasulov, R.Shonazarovlar portretlarini yaratdi. Portretchi rassomlar sonini yuqorida ta'kidlab o'tganlar bilan chegaralab bo'lmaydi. Ular qatorida o'z matolarida zamondoshlarimiz obrazlarini muhrlagan Y.Tursunnazarov,

B.Salomov, I.Bahramov, Ch.Bekmirov, M.Nuriddinov, O.Bakirov, B.Nazarov va boshqalarni sanab o‘tish lozim.

Tasviriy san’atning rangtasvir turining asosi ranglar hisoblanadi. Rangtasvirda asaming emotsional ta’sir kuchini oshirish maqsadida uning mazmun va mohiyatidan kelib chiqqan holda, ranglaming issiq va sovuq turlaridan foydalaniladi.

Issiq va sovuq gammadagi ranglar ko‘proq manzara janrida qo‘llaniladi. Quyoshning botishi, issiq kun, yoz, kuz mavzulari issiq ranglarda tasvirlansa, qish, qor, ayozli kun manzaralari sovuq ranglarda tasvirlanadi.

Manzara janrida O‘.Tansiqboyevning “Angren-Qo‘qon tog‘ yo‘li” nomli asarini misol tariqasida keltirish mumkin. Portret janrida rassom R.Chorievning “Keksa” portreti sovuq ranglar ustuvorligida ishlangan.

Rangtasvir san’atining mashhur vakillaridan Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Rembrandt, Karl Bryullov, Anri Matiss, Albrext Dyurer, O‘zbekistonlik rangtasvir ustalaridan O‘rol Tansiqboyev, Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Malik Nabiyev, Ro‘zi Choriyev, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzayev, Akmal Ikromjonov, Akmal Nur va boshqa bir qancha rassomlarni aytish mumkin.

Rangtasvir asarlarini yaratishda chiziq va rang dog‘lari ham ifoda vositasi sifatida foydalaniladi. Tushunarli bo‘lishi uchun bunga izoh berib o‘tamiz.

Rangtasvirning qiziqarli ko‘rinishlaridan biri nazmiy-romantik uslubda milliy o‘ziga xoslikni talqin etish avj oldi. Bu yo‘nalishning kelib chiqishi uslubiga ko‘ra turlicha ishlangan asarlarda, jumladan, Ch.Axmarovning 1950 yillardagi chizikli rangtasvirda va 1970-yillar boshlarida Sh.Abdurashidov, A.Mirzaev, R.Shodievning yorqin ranglar gammasida bajarilgan kartinalarga borib taqaladi. Mazkur milliy-romantik oqimda 1990-yillarda A.Mirzayev, R.Shodiyev, O.Qozoqov, N.Shin, I.Valixojaev, Sh.Abdullayeva, Ch.Axmarov va I.Mansurov, S.Raxmatov, T.Shoymardonov va boshqalar yorqin bezakdor va chizikli shakliy asarlar yaratdilar.

A.Mirzayev, R.Shodievlarining asarlari shaklning erkin o‘yini, rang va nurning kutilmagan, ba'zan esa qarama-qarshi qorishiqlari, o‘ta bezakdorlik, an'anaviy xalq san'atiga tayanganligi bilan ajralib turadi. A.Mirzayev ijodi 1990-yillarda deyarli davrli o‘zgarishlarga uchramaydi. Rassom asarlarida avvalgidek rangin ifodaviy vositalarni oddiy mavzular asosida kuchaytirishga intilish seziladi. 1991-yilda yaratilgan “O‘tmishdan ertaklar”, “So‘qoqda” (1995), “Qizil tog‘ etagidagi uchrashuv” (1996) asarlari shu yo‘sinda yaratilgan. 1998-yilda Fransiyaga qilgan ijodiy safaridan keyin yaratilgan turkum asarlari ham mana shu ranglar uslubiyatiga ko‘ra bajarilgan.

R.Shodiyevning 1990-yillardagi asarlarida oldingi ishlariga nisbatan o‘zgarishlarni ilg‘ash mumkin. U o‘z ijodiy g‘oyalarini bir muncha ehtiroslarga burkangan tarzda namoyon etadi. Rassom doimiy ijodiy izlanishda bo‘lib, ko‘proq ko‘tarinki ruhdagi janrli kartinalarni tasvirlaydi. Musavvirning “Manzara” (1999), “Bayram” (1999) asarlari qarama-qarshi ijodiga xos bo‘lgan yorqin ranglarda bajarilgan asarlariga qaraganda, 1999 yilda ishlangan “Dasht tong” kartinasi ko‘k-kulrang-qora sovuq gammada yaratilganligiga qaramay, kutilmaganda o‘zida mukammal kompozitsiyani gavdalantiradi. Bu davrda bo‘lib o‘tgan turli ko‘rgazmalarda–milliy romantiklik biroz yorqinroq ranglar va murakkablashtirilgan kompozitsion yechimida shakllantirilgan asarlari bilan – O.Qozoqov faol ishtirok etdi. Musavvirning aksariyat asarlari xalq folklori va dostonlari asosida vujudga kelgandir. Bu borada O.Qozoqovning 1996-yilda ishlangan “Kanizaklar” triptixi na'munali qaraladi. I.Mansurovning 1990-yillar boshlarida xalq bayramlari va folklor namoyishlari asosida bajarilgan “Navro‘z”, “Katta navro‘z”, “Tush”, Bahor turkum kartinalari alohida qiziqish uyg‘otadi. Kompozitsiyalar asosida ranglar gammasi bo‘ysundirilgan chiziqlar yotadi. Rangtasvirli bezakdorlik, keskin plastik yechimlilik, shuningdek, chiziqlik Ch.Axmarov, S.Raxmonov, Sh.Abdullayeva, T.Shoyardonovlar ijodiga xosdir. Bu musavvirlar dastgohli rangtasvir kartinalariga ilk o‘rta asrlar O‘rta Osiyo davriy suratlari va miniatyurasi an'analarini singdiradilar. O‘zbekiston mahobatli rangtasviri asoschisi Ch.Axmarov shuningdek, uning shogirdlari S.Raxmonov va



Sh.Abdullayeva ijodida yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Samarqandlik musavvir T.Shaymardonovning (“Hayotnoma”, triptixi) va Toshkentlik rassom E.Zaynitdinovning (“Xalqimga”) 1991 yilda yaratilgan kartinalarida miniatyura an'alarini kuzatish mumkin. Rangtasvirchi rassomlar izlanish ishlari olib borilayotgan mazkur davrda O‘zbekiston rangtasvirining milliy-romantik yo‘nalishi rivojlanishining yangi qobig‘iga kirdi va zamonaviy rangtasvirning yorqin badiiy jihatlaridan biri bo‘lib qoldi.

90-yillar respublikaning yetakchi rangtasvir ustasi B.Jalolov ijodi ham samarali bo‘ldi. Shu davrdan yaratilgan asarlari 80-yillarda yuzaga kelgan asarlarining tadrijiy davomi tarzida shakllanib, mutloq yangi shakliy va yorqin g‘oyaviy-plastik yechimlarni o‘zida namoyon etdi. Binobarin, musavvirning ijodiga xos yuksak mahorat, rangtasvir plastik yechimlarining betakror nafasoti, koinot va tabiat, inson va borliq uyg‘unlashuvi, mavjudlik va ruhiyat musaffoligi kabi mavzular o‘z muhimligini saqlab qoladi. Musavvirning hayotiy shakllar olami chegaralarini buzib, benihoya fantaziyalarini gavdalantirish istagi ma’juziy – silsilaviy talqindagi ko‘plab asarlarning yaratilishiga olib keldi. U mahobatli rangtasvir sohasida avvalgidek shakliy ifodaga moyilligini saqlab qolsa-da, dastgohli rangtasvirida o‘z holatiga cheksiz erk beradi. Biroq, u rang, shakl, chiziqlarni rivojlantirar ekan, har safar rangtasvirning yangi imkoniyatlarini ishga solib, o‘zini xech takrorlamadi. Milliy xususiyatga ega bo‘lgan palitraning barcha qudrati va boy tomonini ko‘rsatishga bo‘lgan intilishi J.Umarbekovni tor doiradagi milliy-uslubiy chegaradan chiqib ketishga undaydi (ushbu chegarada – yorqin bezakdor ranglar, maishiy atributlar, shuningdek, hayotga ijobiy munosabati bir-biri bilan aralashib, fikran bog‘lanadi). Ruhiy kayfiyatning rangin jilosi va o‘zbekona milliy xususiyatlar shubhasiz keng va boydir. J.Umarbekov buni xis qiladi, uning ishlarida kayfiyatning keng gammasi, ohang, jo‘shqin qiyofali, nozik ranglar, xalqning o‘ziga xos milliy fazilatlarini ishtirok etadi.

S.Alibekovning ahloqiy-falsafiy muammolarga bag‘ishlangan asarlari bilan bir qatorda, g‘ayrioddiy, shoirona, chuqur mulohazalarga undovchi ishlari ham borki, ularda rassomning nafis hayoliy olami va adabiy iste’dodi yo‘g‘irilgan

bo‘lib, bu uning o‘zini (ya'ni rassom shaxsini) to‘la namoyon etadi. “Piyongul gullagan lahza” (1995), “G‘aroyib sharbat hidi” (1996), “Suzayotgan flominga uchun harorot” (1996) va “Muvozanat bog‘i” (1997) va shu kabi boshqalar asarlari shular jumlasidandir.

Sergey Alibekov ijodini belgilovchi muhim omil – estetik, badiiy-nafis asoslaridir. Uning kartinalarida ma'lum bir chegarada axloqiy fikrlar mavjud, ammo rassom ijodida bosh yo‘nalish – shoirona fikrlash, ijodiy fikrning erkin parvozidir. Ularda ko‘proq iliq-sovuq ranglar o‘yiniga urg‘u berilib, makon va rivojlanishdagi yechimlar: Harakatni surati yoki aksincha to‘xtalib qolgan vaqtni (yiqilayotgan tayoqcha, askar holati, kapalaklar parvozi, yuqori qismi odam ko‘rinishidagi qadimgi triton, yarmi baliq dumi shaklidagi dengiz xudosi, toshga aylangan niqob, va boshqalar) his qilish xususiyatlari ustunlik qiladi. Umuman olganda musavvir ijodida muhabbat mavzusi va uning umuminsoniy ahamiyati yetakchilik qiladi. “Sevgi olmasi”, “Muhabbat bog‘i”, “Muhabbat daryosi” (1995), “Muhabbat oroli” (1998) asarlari jojibali nomlangan.

Mazkur asarlarda musavvir turli ramziy-majoziy timsollar, ya'ni oy, xo‘kiz shoxi, baliq, qayiq kabilarni qo‘llaydi. Biroq, ushbu kartinalarda asosiy ma'no va umumiy klassik yo‘sinini olma mavzusi egallaydi. Ba'zan esa, olma bo‘lmagan holda uning fonida esa sevisgnalar, ba'zan esa olmalar havoda muallaq holatda tasvirlangan. Mavzuning botiniy mazmuni asta-sekin ikkinchi planda berilib, olma tasviri muvaffaqiyatli joylashtirilib, uslubni mahorat bilan almashtirilib turadi. Bu davrda yaratilgan asarlarning bosqichlari sezilarli darajada bo‘lib, musavvirning 1998 yilda yaratilgan “Muhabbat oroli” polotnosi, 1995-yildagi asarlaridan tomoshabinga yengil kayfiyat baxsh etishi va kompozitsion yechimning nafisligi bilan ajralib turadi.

Rassomning bu turkumidagi kartinalari bezakdorlik uslubining nozlikligi bilan 1998-yilda bajarilgan “Ilhom parisi”, “Rishton natyurmorti”, “Daxldorlik”, “Doira chalayotgan qiz” asarlariga juda yaqin turadi. Shunday qilib mazkur asarlar rangtasvir vazifalarini rasmiylashtirishga urinish yanada muayyan va mavxumroq

plastik formulalarining izlanishi bilan A.Nur ijodidagi yangi yoʻnalishlarni aniqlaydi.

Iste'dodli rassom J.Usmonov polotnolaridagi xotirjamlik va mamnuniyat kishida samoviy kayfiyat uygʻotadi. Uning nigoxlarida yaralgan olamda keskin harakatlar sodir etilmaydi, aksincha qiyofalar chuqur hayol, orzu-umidlar hamda orombaxsh aql-idrokga yoʻgʻirilgandir. Marvarid misol tovlangan kulrang, havorang, tillarang – yashiltob ranglarning latofati uygʻunlashuvi hamda nafis chizgilar musavvir kompozitsiyalariga e'tiborni jalb etuvchi bezakdorlik baxsh etadi.

Ayol, muhabbat, oila – Nodir Shoabduraximov kartinalarining asosini tashkil etadi. U qalban shoir, shu boisdan ham asarlari va sharqona lirikaning an'anaviy mavzulari oʻrtasidagi juftlikda tashbexlaru qochirimlar mavjud. Nodirning polotnolarida ayollarning vujudini ifoda etuvchi nafis, muloyim chiziqlar sharqona kuyning sokin ohangini takrorlayotgandek tovlanish, sokinlik va ijodkorlik uning rangtasvir asarlarining asosiy xislatlarini tashkil etadi, xuddi mana shular asarlarining sharqona dunyosini belgilab beradi. Xalq san'atining mumtoz merosi boʻlgan bu ijod turli rangtasvirlarda shakl izlanishlarga mos tarzda ajoyib mutanosiblik baxshida etadi.

### **1.3. Manzara ishlashda buyuk rassomlarning asarlarida kompozitsiya tuzilmalar tuzilishini ilmiy tahlili.**

Tasviriy sanʼatning manzara janrida yaratilgan asarlarda ona tabiatning goʻzal va betakror, ulugʻvor hamda epik obrazi gavdalanadi. Manzara va umuman tasviriy sanʼat asarlari kishida goʻzallik tuygʻusini tarbiyalaydi, estetik didning shakllanishi va mukammallashuvida alohida axamiyat kasb etadi. Manzara asarlari inson ruhiyatiga taʼsir koʻrsatib, maʼnaviy ozuqa berish bilan birga Ona yurtning moddiy boyliklarini asrab-avaylashga oʻrgatadi, ularni avlodlarga bekami-koʻst etkazish zarurligi gʻoyasini singdirishga xizmat qiladi. Shu maʼnoda yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda manzara asarlarining ahamiyati kattadir.

Tasviriy san`atda tabiiy yoki inson tomonidan o`zgartirilgan tabiatni aks ettirishga bag`ishlangan janr manzara deyiladi. Tabiat manzarasini aks ettirish Xitoyda VII asrda paydo bo`lgan. Manzara janri mustaqil janr sifatida XVII asrdan boshlab Yevropa san`atida rivojlandi va ayniqsa golland rangtasvir san`atida keng tarqalgan.

G`arbiy Uyg`onish davri san`ati ustalari ital`yanlar A.Mantegna, Piero della Francesca, Djordjone, Leonardo da Vinci, Tsvianlar tomonidan tabiat obrazini ifoda etishga turlicha urinishlar bo`lgan. Unda tabiat inson bilan hamfikir, garmonik bog`langan bo`lib, arxitekturaviy muhit asosiy o`rinda turadi.

Niderland ustalari Yan Van Eyk, X`yu Van Der Gus va nemis rassomlari A.Dyurer, M.Nitxard, A.Al`tdorfer, L.Kranax (kattasi) ijodlarida tabiat obrazlari o`ziga xos ravishda talqin etiladi. P.Breyga (kattasi) manzaralarida olamni ko`rish, xalq hayotini spetsifik namoyon bo`lishining va insonni tabiatdan ajratib bo`lmasligini ko`rsatadi. Uning “Yil fasllari”, “Podaning qaytishi” (1565, Vena san`at muzeyi) asarlari shular jumlasidandir.

XVII asrda klassitsizm san`atida ideal manzaralar ishlash printsiplari paydo bo`ladi va asosiy o`rinda tabiat obrazi mohirona tasvirlanadi, ular olamning tuzilishi qonuniyatlarini ifoda etadi. Frantsuz rassomi N.Pusen ijodida ideal manzara “qaxramon” sifatida ulug`landi. Bunda antik mifologik asarlaridan keng foydalanilgan. Masalan, “Gerkules va Kakusning yakkama-yakka jangi” (1649 DTSM) asarini misol keltirish mumkin. Borokko rassomlari esa tabiatning stixiyali qudratini kuylaydilar. Inson bu tabiat ichra yashaydi, tabiat bilan yaqinlikda, tabiatning o`zi esa o`z balo ofatlari bilan kurashda bo`ladi. Shunday kartinalarga P.Rubensning “Tosh tashuvchilar” (1620, D.E.Leningrad), Velasquesning naturadan ishlangan plener elementlari tasvirlangan manzaralarini kiritish mumkin.

XVII-XVIII asrlarda manzara janrida shahar arxitekturasini tasvirlash keng tus oladi. Ayniqsa italyan rassomlari Konaletto va B.Bellotto manzaralarida shahar ko`rinishlari mohirona tasvirlanadi. Rossiyada esa F.Ya.Alekseevning Peterburg va Moskva shaharlari tasvirdangan manzaralari mashhur bo`lgan.

Shuni unutmaslik lozimki, manzara janri mustaqil janr sifatida shakllangan bo`lsa-da, unda ba`zan inson obrazini ham uchratish mumkin. Biroq manzara kompozitsiyasida inson tasviri, shuningdek kichik syujetli sahnalar hal qiluvchi rol o`ynamaydi, balki manzarani to`ldirish, tasvirning jonli chiqishi uchun xizmat qiladi. Bunday kartinalar sirasiga V.Polenovning “Moskva hovlisi”, A.Plastovning “Birinchi qor” asarlari kiradi.

Rus rassomlarining ko`plab avlodlari uchun A.Ivanov ijodi mahorati maktabi vazifasini o`tagan. A.Ivanov 1830 yilda Badiiy Akademiyani tugatgach, yigirma sakkiz yil vaqt mobaynida Italiyada yashagan. A.Ivanovning mashhur “Novda”si “Isoning xalqqa ko`rinishi” kartinasiga ishlangan uch yuzdan ortiq etyudlardan biridir. U qariyb yigirma yil davomida yaratilgan katta kartinasi - “Isoning xalqqa ko`rinishi”ga ishlangan o`z etyudlarini “tugallangan etyudlar” deb ataydi. Rassomning e`tirof etishicha, ularda hayotining eng yaxshi damlari muhrlanib qolgan. Rassomning manzara etyudlarida tabiatning lahzalik, o`tkinchi holatlari emas, balki mangukka daxldorlik seziladi. Shuning uchun u ko`pincha asrlar o`z muhrini qoldirgan narsalarni ko`hna daraxtlar, tog`lar va toshlarni tasvir ob`yekti qilib oladi (“Toshlar” etyudi). “Novda” etyudida A.Ivanov uslubiga xos ranglarning tiniqligi, rang gammasining nafisligi ko`zga tashlanadi. Novda kompozitsiya markazi sifatida boshqa detallarning uyg`unligini ta`minlagan unda go`yo borliq mavjudligining mohiyati, tiriklikning mazmuni ifodalanadi. Osmon, tog` va dengiz fonida tasvirlangan novda hayotning bir qismi, uning abadiyligi ramziga aylangan. Ivanov 1840-1850 yillar oralig`ida “bolalar bilan tasvirlangan manzaralar” turkumini yaratdi. Rassom ularda “insoniyatning bolalik davri”ning mifologik obrazini aks ettirishga harakat qildi.

Manzara janrini tarixiy rivojlanishi natijasida o`zini ichki bo`linishi-janr ko`rinishlariga ham ega bo`lgan bular qishloq manzarasi, shahar manzarasi, industrial peyzaj va peyzaj-marina kabilardir.

Marinist (dengiz manzarasini aks ettiruvchi) rassom sifatida tanilgan I.Ayvazovskiy o`z ijodida asosan dengiz ulug`vorligi va go`zalligini ko`rsatishga intildi. Uning qariyb olti ming atrofidagi kartinasi dengiz ko`rinishlarini aks

ettirishga bag'ishlangan "To'qqizinchi val", "Chesmen jangi", "Navarra jangi", "Qora dengiz", "To'lqinlar orasida", "Dengiz" kabilar kartinalari shular jumlasidandir. I.Ayvazovskiyning dengiz tasviriga bag'ishlangan kartinalari faqat miqdor jihatidan emas, badiiy mahoratining yuksakligi bilan ham qimmatlidir.

"Qora dengiz", "To'lqinlar orasida" kartinalarida bezovta dengiz va bulutlar bilan qoplangan osmonning ikki stixiyali kuchning kurashi o'z ifodasini topgan. Uning 1850 yilda yaratilgan "To'qqizinchi val" asarida inson va tabiat kuchlari orasidagi kurash aks ettirilgan ilk nurlari fonida tasvirlangan manzara tungi halokatdan so'ng jon saqlash uchun oxirgi kuchi qolguncha harakat qilayotgan, hayotdan umidini uzmagan kishilarning kema machtasiga mahkam yopishib olgan holatlari namoyon bo'ladi. Kartinada insonlar kompozitsiya markazi sifatida tasvirlangan. Ochiq osmon va cheksiz-chegarasiz dengiz fonida tasvirlangan kishilarning hayot uchun kurashi tomoshabinda chuqur hamdardlik uyg'otadi. Garchi kartinada lahzalik holat muhrlanib qo'yilgan bo'lsa-da, uni tomosha qila turib ketma-ket bostirib kelayotgan dengiz to'lqinlarining harakatini, shovqinini his qilish mumkin. "To'qqizinchi val"da tasvirlangan manzara dramatik keskinligiga qaramay, kishida ulug'vorlik kayfiyatini tug'diradi.

"Dengiz" kartinasid dengiz sohili, o'zlarining kundalik tashvishlari bilan band kishilar aks ettirilgan. Kartinada odatdagidek dengiz "bosh qahramon" – bu erda insonning tirikligi, tirikchilik dengiz bilan chambarchas bog'liq.

Yana bir rus rassomi I.I.Shishkin o'zining asarlarida keng va bepoyon dalalar, sirli va ulug'vor o'rmonlar tasvirini sevib tasirlagan. Uning "Qarag'ayzorda tong", "O'rmon olislari", "Dublar" kabi kartinalar shular jumlasidandir.

"Dublar" Shishkinning eng mashhur asarlaridan biri. Kartinadagi dublar ulardan taxminan ikki qadam berida turib kuzatayotgan kishining ko'rish nuqtasidan tasvirlangan. Shunga ko'ra, rassom tanlagan rakurs daraxtlarni bor bo'yicha qamrab olmaydi. Odatda manzarachi rassomlarning aksariyat asarlarida oldingi planda tasvirlangan narsalarning quyuuq rangdagi ko'rinishini hamda kartinaning qariyb yarmini egallaydigan ochiq osmon fonini kuzatish mumkin.

Shishkin bu borada original yo`l tutadi., uning asarlarida ochiq va quyuq ranglar kartina bo`ylab deyarli teng taqsimlanadi. “Dublar” kartinasida esa daraxtlar ostidagi maysalarning quyosh nuri ta`siridagi yorqin va ochiq rangdagi ko`rinishini kuzatish mumkin. Kartinadagi nur va soyalarning nisbatan keskinligiga qaramay, manzaradagi ranglar uyg`unligi, ritmi saqlangan. Shu bilan birga rassomning “Qish” kartinasida rassom tanlagan rakurs qish manzarasiga mos rang-tus uyg`unligini hosil qilish uchun xizmat qilgan. Oldingi plandagi narsalar yiqilgan daraxtlar tanasi, shox-shabbalar, pastak archalar hammasi qor ostida qolgan. O`rta plandagi daraxtlar faqat yarmigacha tasvirlangan, orqa planda bor bo`yicha ko`rinib turgan daraxtlarning shoxlarida qor go`yo muzlab, qotib qolgandek. Bu erda tomoshabinni manzaraning tabiiyligi, hayotiyli e`tiborini jalb qiladi. Shishkinni yana bir asari “O`rmon olislari” deb nomlanadi. Kartinada rassom o`zi ko`rib turgan naturadagi mavjud narsalarni hayotiy, haqqoniy aks ettirishga intilgan.

Manzara janrida A.K.Savrasov (“Zaqchalar uchib keldi”), A.I.Kuinji (“Dneprda to`p”, “Ukrainada oqshom”, “Shimol”, “Momaqalldiroqdan so`ng”, “Qayinzor”), V.D.Polenov (“Moskva hovlisi”), F.V.Vasil`ev (“Qrim tog`larida”, “Yomg`ir oldidan”), I.I.Levitan (“Mart”, “Oltin kuz”, “Kuz payti. Sokol`niki”, “Girdob”) kabi rassomlar o`zlarini mashhur manzara asarlarini yaratganlar. G`arbiy Yevropa san`atida Klod Lorren o`zining ajoyib manzaralarini yaratgan. Rassom asarlarida tabiat tinch holatida ko`rsatiladi. Uning asarlarida yarim vayron bo`lgan antik yoki afsonaviy me`morlik qoldiqlari ko`rkam daraxtlar fonida g`oyat jozibali ko`rinadi. Uning kompozitsiyalari aniq tartibda ishlangan. Lekin bu uning realistik xarakteriga putur etkazmaydi. Rassom havoga to`la bepoyon kenglikni ustalik bilan ko`rsatadi. Undagi nur va soya tovlanishlarini mahorat bilan gavdalantiradi. Rasomning “Tong”, “Tush payti”, “Kechki payt” asarlari o`ziga xos rang tizimida echilgan. Lorren klassik manzara janrini mukammal ko`rinishini yaratdi. Uning ijodi keyinchalik frantsuz va Yevropa san`atiga sezilarli ta`sir o`tkazgan.

Golland rassomi Yan van Goyen real borliqni o`rganish asosida asarlar yaratgan. Birinchi bo`lib tonal rangtasvirida asarlar ishlagan, tabiatning nam havosini ustalik bilan tasvirlagan.

Yakob van Reyedal manzaralari o`zining his-tuyg`ular va kayfiyatlarga boyligi bilan ajralib turadi. Uning asarlarini mavzusi keng. Qishloq ko`rinishlari, tekislik va qumtepaliklar, o`rmon botqoqlari va dengizlar turli ko`rinishda tasvirlanadi. Rassom ijodini gullagan davrida dramatik manzaralar ham yaratadi. Bu yillarda Reyedal ko`pincha tabiatning avzoi o`zgarishi paytlarini tasvirlaydi. Osmonni qora bulutlar egallaydi. Ularning oralaridan tushgan yorug`lik u yoki bu erni yoritadi. Atrofga notinchlik, bezovtalik va sirli ko`rinishi kiritdi. Rassom tabiatni doimiy harakatda ko`rsatadi. Uning asarlarida daraxtlar shamoldan silkinayotgandek, daryo va dengiz to`lqinlari mavj urayotgandek, quyuq bulutlar osmon uzra suzib borayotgandek tuyuladi. Bu xususiyat uning manzaralariga dramatik holat baxsh etadi. Rassom ijodiga xos bu xususiyat “Qish”, “Yahudiyalar qabristoni”, “Jo`shqin daryo” asarlarida yaqqol ko`rinadi. Rassom nur imkoniyatlaridan foydalanib, asarning ta`sirchanligini oshirishga erishadi.

Meyndert Xobbema (1638-1709) ijodida o`rmon ko`rinishlari, suv tegirmonlari manzarasi alohida o`rin tutadi. Uning asarlarida osiyshtalik xukm suradi. “Middelxarnis yo`li” asarida rassom perspektiva qonuniyatidan foydalanib, fazoviy kenglik va cheksizlikni ishonarli tasvirlaydi.

Ingliz manzarachisi Jozef Mellord Uil`yam Turner (1775-1851) o`z davrining sermahsul rassomlaridan bo`lib, u moybo`yoq va akvarelda rasmlar ishlab shuxrat qozondi. Turner Badiiy Akademiyada ta`lim olgan. 1802 yili esa akademik unvoniga sazovor bo`ldi. Rassom o`z ijodini realistik manzaralar chizishdan boshlab, keyinchalik antik syujetlarda rasmlar ishlay boshladi. Bu asarlarda rassom ko`proq Klod Lorrena yaqinlashib ketadi. Turner kechki quyosh botishi yoki chiqishini tasvirlab manzaralar chizadi. Ularda ranglar ta`sirchanligini oshirishga, spektr ranglardan foydalanishga harakat qiladi. Predmetlar shakli esa muhitga qo`shilib, sustlasha borgandek tuyuladi. “Jasur kemasining so`ngi reysi” (1839) surati rassomning mashhur asarlaridan biridir.



Asarda Turner kompozitsiyaning simmetrik echimidan qaytib, uni assimmetrik holda tuzadi. Hamma tasvirlanayotgan predmetlarni chap tomonga surgan holda, o'ng tomoni ufqqa bosh qo'yayotgan quyosh gardishi bilan kompozitsion muvozanatga keltirib, asar dinamikasini oshiradi. Tanlangan keskin ranglar esa bu dramatismni yanada chuqurlashtiradi. Rassomning so'nggi asarlarida voqelik tizimini dinamik harakat paytida idrok etish yanada kuchayadi. "Yomg'ir, bug' va tezlik" (1844) degan asari bu jihatdan e'tiborlidir. Mazkur asarda tumanni yorib, vagon, tutun, yomg'ir va poezdni yoritayotgan nur tasvirlanadi.

Nemis rassomi Filipp Otto Runche (1770-1810) manzaralarida tabiatning abadiyligi, qaytarilmasligi va cheksizligini aks ettiruvchi tabiat ramziy obrazini yaratishga intilgan. Shunday asarlaridan biri "Tong" deb nomlanadi. Unda quyosh ko'tarilib kelayotgan paytda tasvirlangan bahor manzarasi turli ramziy allegorik shakllar bilan aralashtirib yuborilgan. Tabiat ulug'vorligini kuylash nemis romantizmning ko'zga ko'ringan vakili Kaspar David Fridrix (1774-1840) asarlari uchun ham xosdir. U manzaralarida ko'pincha goh oy chiqishi paytini, goh kun botishini, goh erta tongni tasvirlaydi. Bu rassom ushbu manzaralardan romantik kayfiyatni ifodalash uchun foydalanadi. Manzara janrini rivojida Parij yaqinidagi Barbizon va uning atrofiga yaqin erlarni, Fontenblo o'rmonini o'zlari uchun sevimli maskanga aylantirgan rassomlar ijodi muhim rol o'ynagan. Ular o'z yurtlarining tabiatni kuzatish va uni chuqur o'zlashtirish asosida hajm jihatidan katta bo'lmagan manzara janriga xos asarlar yaratib, tabiat go'zalligini ko'pchilikka ko'z-ko'z qilib, o'zlarining yurtiga muhabbat va hurmatlarini ifodaladilar. Ular manzara san'atida o'zlarining his-tuyg'u va kayfiyatlarini ha ifodalashga intildilar. Kular bevosita tabiat asarlari yaratdilar. "Borbizon maktabi" iborasi hamshu er nomidan olingan. Bu ibora frantsuz milliy realistik maktab vakillarining ijodini ta'riflash uchun qo'llaniladigan bo'lib qoldi. Bu maktab vakillari ijodiga xos xususiyat ona yurt tabiatini kuylash, kishilarda unga nisbatan muxabbat uyg'otishga qaratilganligidandir. Ularning asarlari bevosita hayotning o'zidan olinganligi hamda kompozitsiya va koloritning tabiiy hamda nur va havoga boyligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi.

Teoder Russo (1812-1867) barbizon maktabining taniqli vakillidir. U tabiatni tinch, osiyishta ko`rinishda tasvirlaydi. Rassom katta ochiq kengliklarni, o`rmon chekkalarini, baquvvat kuchli ildizlari bilan erga yopishib olgan katta eman daraxtlari tanasini goh ochiq quyosh nuriga cho`milgan paytda, goh kunbotish oldidagi ko`rinishini tasvirlashni sevadi ("Normandiya bozori"). Jyul Dyupre (1811-1889) asarlarida esa tabiatdagi notinchlik, besaramjonlik ifodalanadi. Rassom momaqaldiraq va chaqmoq chaqish paytidagi tabiat ko`rinishlarini, botayotgan quyosh nurlarining otash haroratini aks ettiradi, hovuzlar, ko`llar tasvirini ishlaganida ham ularning yuzasida osmonda suzib borayotgan bulutlar aks ettiradi. ertalabki kun chiqishi, sokin kechki pay' poeziyasi Sharl Fransua Dobin'i (1817-1878) ijodida ham o`z ifodasini topdi. Rassom daryo qirg'oqlarini tasvirlashni sevadi. Uning asarlarida tinch hayot mayin va nafis ranglar tovlanishida ifodalanadi. Barbizon maktabining ana bir vakili Nortsiss Diaz (1807-1876) quyuq o`rmonzorlar ko`rinishi, ulardagi so`qmoq va maydonlarni tasvirini ishlaydi. Uning manzaralari birmuncha yorqin dekorativdir. Quyuq daraxtlr orasidan tushayotgan quyosh nurlari uning asarlaridagi ranglar ziddiyati va jilvasini ortiradi. Konston Troen (1810-1865) manzaralari esa hayvonot olami bilan to`ldirilgan va ular tabiatning ajralmas qismi sifatida undagi manzaralarga yanada fayz kiritadi. Frantsuz manzara rassomligida Kamil Koro (1796-1875) ijodi alohida o`rinni egallaydi. U tabiatning realistik umumlashma obrazini yaratib, unda o`z kechinma va kayfiyatlarini ifodalashga xarakat qiladi. Rassom asarlari uchun nurni asosiy ifoda vositasi sifatida qo`llaydi. Nur uning asarlarida tekis va mayin tarqaladi. Rassomning ilk asarlarida shahar manzarasi hamda me`morchilik obidalari tasvirlagan. Bu asarlarda rassom fazoaiy kenglikni tasvirlashga, predmetlar hajmini ko`rsatishga harakat qilgan. Aniq rang kontrastlaridan foydalangan. Bu ranglar odamla qiyofasini, asar kompozitsiyasini to`ldirib, shahar hayotini real ifoda qiladi. Vaqt o`tishi bilan Koro ranglarni keskinlashtirishdan chekinadi. Ranglar orasidagi bog`lanishni mayin va nozik ifodalashga o`tadi. Rassomni bu paytga kelib qishloq manzarasi ko`proq o`ziga jalb qiladi. Parij atrofidagi tabiat ko`rinishlari, Fontenblo o`rinlarini uning asarlarida o`z ifodasini

topa boshlaydi. Uning manzaralari sokin, osiyishta ko`rinishi bilan kishiga engil lirik kayfiyat baxsh etadi. Rassom valyor rangtasviriga (bir rangning nur va soya hisobiga tuslanishi) ko`proq e`tibor beradi. Asarlarini tong yoki kun botishi paytida ko`proq ishlaydi. Lekin tabiatdagi namgarchilikni, qurg`oqchilikni ustalik bilan tasvirlaydi. Engil mayin shaboda, erta bahor payti zo`r mahorat bilan ifodalanadi. “Shamol to`zoni” (1860) deb nomlangan manzarasida yomg`irdan keyingi holatnam, lekin toza havo, yo`llarida to`planib qolgan ko`lmak suvlar, osmondagi bulutlar harakati rassom tomonidan aniq va ta`sirchan tasvirlangan.

XIX asrning 70 yillarida Parijdagi qahvaxonalarning birida “Xo`rlanganlar” (rasmiy tan olinmagan rassomlari shunday nomlashgan) asarlari ko`rgazmasi ochiladi. Unda hamma ko`nikib, ko`z o`rgangan san`atga o`xshamaydigan, bir qarashda “haqiqiy san`atga” zid bo`lgan rasmlar qo`yilgan edi. Jamoatchilikni katta qismi bu rasmlarni norozilik bilan kutib oladi. Bir jurnalist esa shu ko`rgazmaga atab yozgan maqolasining sarlavhasini Klod Monenning ko`rgazmasidagi “Quyosh chiqishi oldidagi taassurot” deb nomlagan asari asosida “Taassurotchilar” (taassurot frantsuzcha-impression) deb nomlanadi. Dastlab bir guruh rassomlarning ijodini ta`riflash uchun ishlatilgan bu ibora keyinchalik haykaltaroshlik, musiqa, adabiyot va san`atning boshqa turlariga nisbatan qo`llana boshladi. Impressionist rassomlar o`z tevarak-atroflarida sodir bo`layotgan voqealarga-qahvaxona, xiyobonlardagi hayotni tasvirladilar. Tabiatni tez o`zgaruvchan holati (erta, peshin, kech, nam havo, quruq havo, bulutli kun, quyoshli kun va boshqalar), shaharning jo`shqin va gavjum hayoti lavhalari rassomlarni qiziqtirdi. Rassomlar rang surtmalaridan erkin va unumli foydalanishga harakat qila boshladilar. Natijada, rang surtmalarining kompozitsiyalari borliq to`g`risida, uning buyumlari to`g`risida umumiy tasavvur beruvchi vositalardan biriga aylandi. Impressionistlar ijodining yana bir o`ziga xos jihati shundaki, ular o`z politrallaridan qora bo`yoqlarni chiqarib tashladilar, toza spektr ranglari orqali hayotdan, tabiatning o`zidan olayotgan taassurotlarini ifodalashga xarakat qildilar. Naturaning o`zidan plenerda rasm ishlash ularning asosiy ijodiy uslubiga aylandi. Bu ularning politrallarini yanada boyitdi, ishlangan

asarlarning ta`sirchanligini yanada kuchaytirdi. Impressionistlar san`at tarixida novatir rassom sifatida namoyon bo`lishadi. Ular o`z asarlarida quyosh nuri, yangi maysa, tiniq suv go`zalligini mahorat bilan tasvirladilar, gullarni, olamning rang-barangligini ifodaladilar, voqealarni chuqurroq his etishga da`vat qildilar.

Impressionizm maktabi yo`lboshchisi Klod Mone (1840-1926) asarlarida buyumlar nur va havoga o`ralib, o`z ko`rinishini yo`qota boradi va ular ranglar garmoniyasiga aylanadi. Rassom bir ko`rinish yoki mavzuni qayta-qayta ishlaydi. Ularning turli payt va yorug`likdagi holatini rang va nur o`zgarishida tahlil qiladi. Uning Ruan sobori, pichan g`aramiga bag`ishlangan asarlari turkumi, ayniqsa mashhur. Mone toza ranglardan foydalangan holda, o`z politrasiidan qora ranglarni chiqarib tashladi, soyalar ham rangli bo`lishini o`z asarlarida ko`rsatib berdi. Uning “Londondagi Temza va parlament ko`rinishi” (1871), “Parijdagi kaputsinklar hiyoboni” (1873), “Bel-II`dagi qoyalar” (1886) kabi asarlari kompozitsiya jihatidan puxta o`ylangan, ularda ranglar mutanosibliigi me`yoriga etkazilgan. Asardagi har bir rang surtmasi asar mazmunini ochishga xizmat qilgan.

Komil Pissarro (1830-1903) ham impressionistik yo`nalishdagi izlanishlarini manzara janrida ifod qiladi. Uning hajman katta bo`lmagan manzaralari kompozitsiya jihatidan tugal, tabiat go`zalligi jonli va ta`sirli bo`lishiga erishilgan. Uning “Monmart hiyoboni” (1897) kartinasi shunday asarlar sirasiga kiradi.

Al`fred Sisley (1839-1899)ning “Arjanteyedagi kichik maydoncha” (1872) asari esa mayin va chuqur lirizm bilan sug`orilgan.

P`er Ogyust Renuar (1841-1919) ham impressionizmning ytsirik vakili. Uning manzaralari yorqin, kompozitsisida nur va havo ustivor tasvirlanib, manzaradagi nur va havo borliqni birlashtiradi va kompozitsiya to`laligini ta`minlaydi.

O`zbekiston tasviriy san`atida manzara rassomchilikda barakali ijod qilgan rassom O`rol Tansiqboyevdir. Uning “Jonajon o`lka”, “Tog` oqshomi”, “Kattaqo`rg`on suv ombori”, “Issiqko`l oqshomi”, “Tog`larda”, “Mening qo`shig`im” kabi ko`plab asarlari unga shuhrat keltirdi.

N.Karaxanning manzara janrida yaratgan asarlari o`zbek xalqi uchun yaqin, aziz va qadrdon bo`lib qolgan. Uning “Oltin kuz”, “Kuz” asarlari shular jumlasidandir.

O`zbekiston xalq rassomi R.Axmedov “Qish” (1975), “Quyoshli kuz” (1975), “Kuz” (1975), “Qorli tog’lar”, “Oqtosh” kabi asarlari bilan o`zbek manzara rassomchiligi taraqqiyotiga o`zini munosib hissasini qo`shgan rassomlardandir. Shu bilan birga A.Mirzayev, N.Qo`ziboyevlarning manzara janrida yaratilgan asarlari manzaraning tabiiyligi, ranglarning uyg’unligi bilan alohida ajralib turadi.

Manzara motivlarining keng qo`llanilganligini Qadimgi Sharq va Kritdagi fir'avnlr ovi yoki yovvoyi hayvonlar tasvirida ko`ramiz. Bu tasvirlar eramizdan avvalgi XX, XV- asrlarga ta’luqlidir. Shuningdek o`rta asrlar Yevropa san'ati va qadimgi rus ikona tasvirlarida ko`ramiz.

Eramizning XVI-XVII-asrlarigacha manzara turli kartinalarga yordamchi marial sifatida yoki fon sifatida qo`llanilgan. (Masalan: Leonardo da Vinchining “Monna Liza” portreti. 1509 t.m. Luvr. Parij).

Manzara alohida janr sifatida O`rta asrlarda Xitoyda paydo bo`lgan, ular shoiroda bo`lib, tomoshabinga cheksiz zavq-shavq beradi, olamning abadiyligi haqida tasavvur beradi. Rassom H.V.Dun Yuanning “Daryo manzarasi” qora tush bilan ipakli matoga ishlangan. Keyinchalik Xitoy rangtasviri ta'sirida Yapon manzaralari paydo bo`lgan.

Yevropa san'atida uyg'onish davriga kelibgina manzaraning mustaqil janr sifatida shakllanishga urinishlari seziladi. Rassomlar naturani o`rganish bilan kartinalarda kenglikni ko`rishga, chiziqli va havo perspektivasiga asoslanib real muhit – makon sifatida talqin etildi. (K. Vitsa “Mo`jizaviy ov” 1444. Tarixiy va san'at muzeyi. Jeneva). Bu davrda G`arbiy uyg'onish davri ustalari italiyanlar A. Manten'e, P. Fanchesko, Djordjone, Leonardo da Vinchi, Titsianlar tabiat obrazini turlicha talqin etishga urindilar.

Niderland ustalari I. Patiner, Yan van Eyk, Hyu Van Der Gus, nemislar A. Dyurer, M. Nithardt, A. Altdorfer, L. Kranax (kattasi) ijodlarida yovvoyi tabiat obrazlari o`ziga hos ravishda talqin etilgan.

XVI - asrda P.Breygel (kattasi) olamni keng ko'rish, xalq hayotini o'ziga – hos tarzda namoyon bo'lishi va insonni tabiatdan ajratib bo'lmasligini ko'rsatadi. (“Yil fasllari”, “Podaning qaytishi” 1565. Vena san'at muzeyi).

XVII-asrda klassitsizm san'atida ideal manzara “qahramon” sifatida ulug'lanadi. Masalan: N. Pussen (“Gerkules va Kakusning yakkama –yakka jangi”. 1649), Klod Lorren (“Yevropaning og'irlanishi”) asarlarida antik mifologiya va afsonaviy obrazlardan foydalaniladi.

Borokko rassomlari ijodida esa aksincha tabiatning yovvoyi, insonga bo'ysunmas qudrati kuylanadi. (P.P.Rubens. “Tosh tashuvchilar”. 1620. DE.). Golland rangtasvirchilari (Yan van Goen, Yan van Reysdal, Rembrand, Yan Vermer Delfttskiy) balyor sistemasini va fazoviy perspektivani ishlab chiqdilar. XVII-XVIII asrlarda topografik aniqlikda qoyilmaqom shaxar ko'rinishlarini ifodalashda Kanaletto va B.Bellottolar ancha oldinda bo'ldilar.

XIX asrning birinchi yarmida romantizm rangtasvirida tabiatning turli xolatini, milliy manzaraning o'ziga hosligini tasvirlandi, plenerga qiziqish kuchaydi.

Manzara rangtasvirining keyingi rivojida ingliz Djon Konstabl ulkan hissa qo'shdi.

Shuningdek fransuz barbizon maktabi manzarachilari T. Russo, J.Dyupre, N.V.Diaz va boshqalar tabiatning oddiyligi va uning insonlarga sahovatini tasvirladilar. (T. Russo “Fontenblo o'rmonida”, “Barbizondagi ko'rinish”, DTSM). Barbizonchilarga o'z tasviriy san'at izlanishlari bilan Kamill Koro yaqin turadi, u tabiatning mayin o'zgarishlarini tasvirga muhrlaydi. (“Pichan tashish”. 1865-1870. DTSM).

Ochiq havodagi rangtasvir, o'zgaruvcha yorug' va fazo muhitidan foydalanish impressionizm ustalari ijodida yorqin aks etdi. Ular nafaqat qishloqlarnigina emas balki shahar muhiti qiyofasini, zamonaviy shaxarning ko'p qirrali va o'si boruvchi obrazini yaratdilar. (Klod Mone “Parijdagi bulvar - kaputsinok”. 1873. DTSM).

Postimpressionizm ustalari impressionizm printsiplarini yanada rivojlantirdilar. Pol Sezann tabiatning mahobatli iptidoiy kuch-qudratini ko'rsatib berdi. ("Sent Viktuar tog'i". ko'plab variantlari).

Tabiatning taassurotli obrazlarini RSFSR dan L.I.Brodskiy, S.V.Gerasimov, A.M.Gritsay, N.M.Romadinlar, Armanistondan M.S.Sar'yan, Qirg'izistondan S.A.Chuykov, Ukrainadan A.A.Shovkunenko, T.N.Yablonskayalar, Azarbayjondan T.Salahovlar yaratib berdilar.

O'zbekiston tasviriy san'atida akademik rassom Oral Tansiqoevni serquyosh o'lkamizning tabiatini san'atkorona tasvirlagan rassom sifatida keltirish mumkin. Uning asarlarida keng fazo juda ustalik bilan tasvirlanishi, fazo bag'ridagi tabiatning nozik va nafis sirlari o'ta mahorat aks ettirilgan. "Issiq ko'lda kech", "Qoraqum suv ombori" (1957) asarlari, 1960- yillarda esa "Qayroqum GESI tongi" (1957), "O'zbekistonda Mart" (1958), "Ala-tov" (1960), "Angrendagi tog' yo'li" (1962), "Angren daryosi" (1963), "Tungi tog' qishlog'i" (1962), "Kech" (1971) va boshqa asarlari kishini tabiat bag'rida sayr qildiradi. 1972-yilda yaratgan "Mening qo'shig'im" polotnosi esa alohida dovrug' qozondi.

Manzara janrining yana bir ilg'or vakili N.G.Karaxan hisoblanadi. 1930 yillarda ishlagan "Qizlar hovuz bo'yida", "Uch mashshoq", "Hovlida uzum uzish", "To'g'on qurulishi", "Bahor" asarlari, 1940 yillarda "Hirmonchi qiz", "Ona diyor", "Nanay yo'li" kabi manzaralarni, 1957 yilda esa mashxur "Oltin kuz" manzarasini yaratdi.

Manzara motivlarini keng qo'llanilishi Qadimgi Sharq va Kritdagi tasvirlarda uchrashi mumkin. Bu tasvirlar eramizdan oldingi XX–XI asrlarga ta'luqlidir.

Manzara janri alohida janr sifatida o'rta asrlarda Xitoyda paydo bo'lgan. Xitoyda yaratilgan manzara ko'rinishlari juda shoirona bo'lib, kishini zavqlantirib, to'lqinlantiradi. X asrga tegishli Dun Yuanning "Daryo manzarasi" matoga ishlangan bo'lib, borliqni cheki yo'q, suv yuzi keng, ufq gorizontda tuman tutunlari orasida g'oyib bo'lgan. Keyinchalik Xitoy rangtasviri ta'sirida Yapon manzaralari ham vujudga kelgan.

Eramizning XVII asrigacha Yevropa san`atida tabiat manzarasi ko`rinishlari mavzuli surat yoki portret uchun fon tariqasida xizmat qilgan. Masalan, Leonardo da Vinchining mashhur “Mona Liza” portretida manzara mazmunga mos ravishda alohida ahamiyat kasb etadi. Yevropa san`atida manzara janri mustaqil janr sifatida XVII asrdan boshlab rivojlandi. U ayniqsa golland rangtasvir san`atida keng tarqaldi. Bu davrda yaratilgan manzaralarda tabiat obrazi mohirona tasvirlanadi va ular o`zida olamning tuzilishi qonuniyatlarini ifoda etadi. Golland rassomlari tomonidan manzara janrini marina turi yaratilgan. Golland tasviriy san`atida manzara janrida Ya.van Goyen, Ya.Van Ryoyedal, Ya.Vermer, M.Hobbem kabi rassomlar yetuk va mukammal asarlar yaratganlar.

XVII – XVIII asrlarda shahar manzaralari rassomlar asarlarida tasvirlanish kuchaydi. Ayniqsa italyan rassomlari Kanaletto va B.Belloto o`z kartinalarida Yevropa shaharlari manzaralari sevib tasvirlaganlar. Rossiyada esa manzara janrini ustasi F.YA.Alekseev bo`lgan. Uning Peterburg va Moskva shaharlari tasvirlangan manzaralari mashhurdir.

XIX asrning birinchi yarmida manzara janrini taraqqiyotida ingliz rassomi Dj. Konstabl katta hissa qo`shdi, shu bilan birga frantsuz manzarachi–rassomlari T.Russo, J.Dyupre, N.V.Diazlar frantsuz qishloqlari manzaralarini o`z asarlarida muhrlaganlar.

Romantik uslub an`analari XIX asr o`rtalarida rus manzara janrida alohida o`rin tutadi. Ayniqsa, M.N.Vorobyev va marinist rassom I.K.Ayvazovskiylar ijodida kuzatish mumkin. A.A.Ivanovning manzara etyudlarida tabiatning lahzalik, o`tkinchi holatlari emas, balki mangulikka daxldorlik seziladi. SHuning uchun u o`z asarlarida ko`pincha asrlar o`z muhrini qoldirgan –qo`hna daraxtlar, tog`lar va toshlarni tasvir ob`yekti qilib oladi. “Novda” etyudida A.Ivanov uslubiga xos ranglarning tiniqligi, rang gammasining nafisligi ko`zga tashlanadi. Novda kompozitsiya markazi sifatida boshqa detallarning uyg`unligini ta`minlaydi. Osmon, tog` va dengiz fonida tasvirlangan novda hayotning bir qismi, uning abadiyligi ramziga aylangan.



Shu davrlarda tabiat manzaralari tasvirida rassomlarni dunyoqarashi, tabiatni idrok etishning ijtimoiy –tarixiy, milliy va uslubiy xususiyatlari o‘z ifodasini topadi. Shunga ko‘ra mashhur rassomlarning asarlarida peyzaj motivlarining ulug‘vor –romantik (F.Vasilyev), lirik (A.Sovrasov) yoki ijtimoiy –falsafiy (I.Leviton) talqinlarini uchratish mumkin.

Dengiznavislik janrining yirik nomoyondasi rassom sifatida tanilgan Ivan Ayvazovskiy o‘z ijodida asosan dengiz ulug‘vorligi va go‘zalligini ko‘rsatishga intildi. Uning qariyb 6 ming atrofidagi kartinalari dengiz ko‘rinishlarini aks ettirishga bag‘ishlangan. “To‘qqizinchi val”, “Chesmen jangi”, “Navarra jangi” (1848), “Qora dengiz”, “To‘lqinlar orasida”, “Dengiz” kabi kartinalari shular jumlasidandir. I. K.Ayvazovskiyning dengiz tasviriga bag‘ishlangan kartinalari faqat miqdor jihatidan emas, badiiy mahoratning yuksakligi bilan ham qimmatlidir.

“Qora dengiz”, “To‘lqinlar orasida” kartinalarida bezovta dengiz va bulutlar bilan qoplangan osmonning - ikki stixiyali kuchning kurashi o‘z ifodasini topgan. Uning 1850 yilda yaratilgan “To‘qqizinchi val” asarida inson va tabiat kuchlari orasidagi kurash aks ettirilgan. Quyoshning ilk nurlari fonida tasvirlangan manzarada tungi halokatdan so‘ng jon saqlash uchun oxirgi kuchi qolguncha harakat qilayotgan, hayotdan umidini uzmagani kishilarning kema machtasiga mahkam yopishib olgan holatlari namoyon bo‘ladi. Kartinada insonlar kompozitsiya markazi sifatida tasvirlangan. Ochiq osmon va cheksiz-chegarasiz dengiz fonida tasvirlangan kishilarning hayot uchun kurashi tomoshabinda chuqur hamdardlik uyg‘otadi. Garchi kartinada lahzalik holat muhrlab qo‘yilgan bo‘lsa-da, uni tomosha qila turib ketma-ket bostirib kelayotgan dengiz to‘lqinlarining harakatini, shovqinini his qilish mumkin. “To‘qqizinchi val”da tasvirlangan manzara dramatik keskinligiga qaramay, kishida umidvorlik kayfiyatini tug‘diradi.

Rassom A.K.Savrasov manzarani faqat tabiat tasvirigina emas, balki inson hayotining ajralmas bir qismi, inson kechinmalarini ifoda etishning vositasi sifatida ko‘radi. Uning “Zag‘chalar uchib keldi”, “Qishloqda uy, Bahor”, “Tun”, “Oydin kechada qishloq qabristonida” kabi kartinalarida rassom qalbining eng teran kechinmalari mangulikka muhrlanib qolgan.

Rus manzara rangtasvirini yangi qirralarini ochgan rassomlardan biri A.I.Kuinjidir. Kuinji o`z asarlarida ona yurtining bepoyon tekisliklarini, cheksiz osmon, ulug`vor va sokin oquvchi daryolarini yorqin bo`yoqlarda aks ettirgan. Uning “Ukrainada oqshom” kartinasidagi manzarada quyosh botgandan keyingi tabiat ko`rinishi – qizg`ish shu`laga cho`mgan borliq aks etgan. Hozirgina ufq ortiga botib ketgan quyoshning so`nggi nurlari ta`sirida osmon hali qorong`ulashib ulgurmagan. A.Kuinji narsalar tasviridagi nur va soylarning o`zaro munosabatiga alohida e`tibor qaratgan. Shuningdek, ranglarning kartina bo`ylab tekis tarqalishi orqali koloritni saqlashga, detallarni to`g`ri tanlash, joylashtirish bilan kompozitsion muvozanatga erishgan. Shuningdek rassomning “Dneprda tun”, “Shamol”, “Momaqaldiraqdan so`ng”, “Qayinzor” kabi kartinalari ranglarning tiniqligi va nur – soylar ritmidagi o`ziga xoslik bilan kishini e`tiborini o`ziga jalb qiladi.

## **2-bob. Rangtasvirda manzara ishlashda kompozitsiyaning o'ziga xosligi.**

### **2.1. Manzara ishlashda ranglar ustida ishlash usullari.**

Kompozitsiyada ham rang katta o'rinda turadi . Rassom qanday asar yaratmasin birinchi navbatda rangga e'tibor berishi, izlanishi muvaffaqiyat keltirishi mumkin.

“Kompozitsiya” soʻzi lotincha «compositio» soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, qismlarni maʼlum bir tartibda joylashtirish degan maʼnoni anglatadi. Tasviriy sanʼat asaridagi kompozitsiya kartinada tasvirlangan barcha elemenlarning rassom gʻoyasiga muvofiq joylashtirilishini bildiradi. Tomoshabin e'tiborini jalb qilish va uni hayajonga solish uchun rassom tasvirlashning kuchli ifoda vositalarini izlab topishga harakat qiladi. Oʻz maqsadini ifodalashda barcha ortiqcha narsalarni chiqarib tashlaydi, ikkinchi darajali narsalar asosiga boʻysundiriladi. Mato sirti, oʻlchami koʻzlangan maqsad yoki koʻrish nuqtasi, ufq chizigʻini belgilash, rang berish, kompozitsiya markazini belgilash - bularning barchasi kompozitsiyaning elementlari sifatida xizmat qiladi. Manzara asarining mazmuni, tanlangan motivning hayotiyliigi kartinaning kompozitsion qurilishi bilan yuzaga chiqadi. Manzara motivlarini tanlash, kompozitsion uygʻunlikni topa bilish har bir rassomning oʻziga xos ijodiy did va mayliga bogʻliq boʻladi. Manzara etyudlarini ishlash bilan avvalo kompozitsiyaning dastlabki detallari - oldingi, oʻrta va orqa planni tanlashdan boshlanadi. Bunda koʻrish nuqtasini, qogʻoz yoki mato oʻlchamini belgilab olish muhimdir. Manzara etyudi kompozitsiyasida osmon, er va boshqa obyektlar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni topishga ham e'tibor berish kerak.

Tasvirlanayotgan obrazning ta'sirliligi tanlab olingan naturaning qiziqarli tanlash bilan ham belgilanadi. Shuning uchun rassom naturaning eng ta'sirli jihatlarini topa bilishi, buning uchun naturani har xil holatlarda, kunning turli vaqtlarida diqqat bilan kuzatishi kerak. Zarur ufq chizigʻini belgilash, oʻng va chapdan, yaqin va uzoqdan qarab, shunday bir nuqtai nazarni - koʻrish nuqtasini topish kerakki, toki natura oʻzining ifodaviyligi bilan rassom niyatini optimal darajada amalga oshirish uchun xizmat qilsin.

